

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RIZAYEV BAXTIYOR NAZARBOYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI**  
**MODERNIZATSIYALASH TARIXI (1950–1970-yillar)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)**

**Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich**

О‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash tarixi (1950–1970-yillar).... 3

**Ризаев Бахтиёр Назарбоевич**

История модернизации сельского хозяйства в Узбекистане (1950–1970-е годы)..... 39

**Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich**

History of the Modernization of Agriculture in Uzbekistan (1950–1970)..... 79

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 84

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RIZAYEV BAXTIYOR NAZARBOYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI**  
**MODERNIZATSIYALASH TARIXI (1950–1970-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Tar35 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” (www.ziynet.uz) axborot-ta’lim tarmog‘iga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Xaitov Shadmon Ahmadovich**

tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunov Ravshan Normurodovich**

tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Oblomurodov Naim Xalimovich**

tarix fanlari doktori, professor

**Sheripov Umarbek Atajanovich**

tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (365) 221-27-07. E-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi

(2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi)



**A.F. Ochilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

**B.B. Boltayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.R. Rahimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib jahonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish siyosati avj oldi. Jumladan, Meksika, Hindiston va Osiyoning bir qator mamlakatlarida amalga oshirilgan modernizatsiya-mexanizatsiya, irrigatsiya-melioratsiya, kimyolashtirish va urug‘chilik texnologiyalarini tatbiq etish tajribalari qishloq xo‘jaligida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayonlar oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq global muammolarni bartaraf etishda, aholi soni ham ortib borayotgan bir sharoitda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ham global muammolar – oziq-ovqat xavfsizligi, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish tajribalaridan samarali foydalanishga undamoqda.

Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish masalalari yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro tashkilotlarning asosiy e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Xususan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, “yashil inqilob”, innovatsiyalarni moliyalashtirish, agroekologiya, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyalari, tabiiy resurslar boshqaruvi, agrar siyosat, barqaror rivojlanish, seleksiya va hosildorlikni oshirish, qurg‘oqchilik hududlarida qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash yo‘nalishlarida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ilmiy tadqiqotlar natijalari qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish jarayonlarini teran anglashda va bugungi global muammolarni hal etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, o‘tgan asrning 1950–1970-yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan agrar siyosat, boshqaruv, islohotlar, yangi tendensiyalar, innovatsiyalar, modernizatsiyalash jarayonlarini o‘rganish umumiy tendensiyalarining tarkibiy qismi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlik hamda yangi ish o‘rinlari yaratish muammolari agrar sohani modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham qishloq xo‘jaligi sohasini tubdan yangilash va zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish zaruriyatini alohida ta‘kidlab keladi. Xususan, so‘nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida sohani modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga har doimgidan ham ko‘proq ahamiyat berilmoqda<sup>1</sup>. Zero, mavjud resurs hamda imkoniyatlardan to‘la va oqilona foydalanish uchun 1950–1970-yillarda amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash tarixiy tajribasini chuqur o‘rganish orqali aholini barqaror ravishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash, moddiy manfaatdorlikni oshirish, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ilmiy-amaliy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ходимларига. // Халқ сўзи. 2020 йил, 13 декабрь.

asoslarini mustahkamlash, agrar sohada istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 8-noyabrdagi O‘RQ-995-sonli “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi PQ-4021-sonli “Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-sonli “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-dekabrda PQ-431-sonli “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2018-yil 17-aprelda PF-5418-sonli “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Jahonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligi, yashil iqtisodiyot, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari tarixiy tajribasi dunyoning yetakchi xalqaro tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Xalqaro qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari bo‘yicha Kengash (Consultative Group on International Agricultural Research), Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi (International Fund for Agricultural Development) kabi ilmiy tadqiqot markazlari, shuningdek, Vageningen universiteti va tadqiqotlar markazi (Niderlandiya), Rivojlanish tadqiqotlari instituti (IDS, Buyuk Britaniya), Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha Milliy institut (INRAE, Fransiya), Viskonsin-Madison universiteti (AQSH), Qishloq xo‘jaligi va hayot fanlari kolleji (AQSH), A.A.Nikonov nomidagi Butunrossiya agrar muammolar va informatika instituti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Rossiya tarixi instituti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Agrar muammolar instituti (Rossiya), Yarim qurg‘oqchil tropiklar uchun ekinlar bo‘yicha xalqaro tadqiqot instituti (ICRISAT, Hindiston), Xitoy Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi (CAAS, Xitoy), Toshkent davlat agrar universiteti, O‘zR FA Tarix instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) olimlari tomonidan tadqiq etilib, izlanishlar amalga oshirilmoqda.

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.un.org/>, <https://www.cgiar.org/>, <https://www.ifad.org/en/>, <https://www.ids.ac.uk/>, <https://uk.indeed.com/>, <https://www.agroparistech.fr/>, <https://www.ras.ru/>, <https://www.icrisat.org/>, <https://www.caas.cn/en/>, <https://fati.uz/>, <https://buxdu.uz/> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiyalash – paxtachilik, yer-suv islohotlari, jamoalashtirish, mexanizatsiya, irrigatsiya-melioratsiya, kimyolashtirish tarixiy tajribasini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelingan: modernizatsiyalash yuqoridan turib, hukumat tashabbusi bilan kiritilgan, samaradorlik, boshqaruv usullarini g‘ayriinsoniy, majburan joriy etilganligi an‘anaviy xo‘jalik ukladini inqirozga uchratgan (G‘arbiy Virjiniya universiteti, AQSH); O‘zbekiston SSRda paxta monokulturasi sharoitida ayollar va bolalar mehnatidan ommaviy majburiy foydalanilishi modernizatsiya dasturlarining amaliyotga tatbiq etilishidagi turg‘unlik bilan bog‘liqligi (Viskonsin–Madison universiteti, AQSH); sovet davrida tatbiq etilgan modernizatsiya hamda uning turli yo‘nalishlari orasidagi ziddiyatlar (Birmingem universiteti, Buyuk Britaniya), siyosiy evolyutsiya, islohot natijalari, qishloq xo‘jaligining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, qiyosiy, siyosiy-iqtisodiy tahlillar (Xitoy Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi); urug‘chilik va yangi nav yaratish, sug‘orish, irrigatsiya tizimlari taraqqiyoti, qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya, kimyoviy vositalar o‘g‘itlar, pestitsidlar (Yarim qurg‘oqchil tropiklar uchun ekinlar bo‘yicha xalqaro tadqiqot instituti, Hindiston); sovet agrar siyosati, kollektivlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, irrigatsiya tizimlari aks etgan monografiya va to‘plamlarda agrar siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari (Rossiya Fanlar akademiyasi Rossiya tarixi instituti).

Qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasi tarixi, sovet davridagi iqtisodiy islohotlar va ularning samaradorligi, KPSS agrar siyosatining evolyutsiyasi, kolxoz-sovhoz tizimining shakllanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, qishloq aholisining turmush darajasi, demografiya va ijtimoiy tuzilmalar tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida chuqur o‘rganilmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash tarixi o‘ta muhim siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgani uchun bu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- *Sovet hokimiyati davrida nashr etilgan ishlar;*
- *Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda chop etilgan tadqiqotlar;*
- *Xorijda e‘lon qilingan tarixiy asarlar.*

**Birinchi guruh** – sovet davrida yaratilgan adabiyotlar. Ularning katta qismi qishloq xo‘jaligi sohasining ayrim tarmoqlarida amalga oshirilgan islohotlarga bag‘ishlangan. Avvalo, partiyaning agrar siyosati yoritilgan ishlar mavzuning tarixshunoslik bazasini shakllantirdi. Jumladan, A.Aberkulov, B.Tulepbayev, B.Sidikov, K.Eshchanov, S.Urunov, E.Yusupov<sup>3</sup> kabi olimlarning izlanishlari,

---

<sup>3</sup> Aberkulov A. Деятельность Компартии Узбекистана по развитию хлопководства (1959–1970 гг.). – Ташкент: Фан, 1974. – 168 с.; Тулепбаев Б. Компартия Узбекистана борьбе за крутой подъём сельского хозяйства. – Ташкент, 1957. – 196 с.; Сидиков Б. Аграрная политика партии и развитие совхозного производства в Узбекистане. – Ташкент: Мехнат, 1986. – 120 с.; Эшчанов К. Компартия Узбекистана в борьбе за осуществление аграрной политики в современных условиях. – Ташкент: Фан, 1977. – 176 с.; Урунов С. Возрастание руководящей роли КПСС в повышении эффективности сельского хозяйства (на примере деятельности Компартии Узбекистана). – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 233 с.; Руководство Коммунистической партии интенсификацией сельского хозяйства в условиях развитого социализма. От. ред. Э.Юсупов. – Ташкент: Узбекистан, 1979. – 252 с.

shuningdek, KPSSning agrar siyosatini aks ettiruvchi kollektiv monografiyalar<sup>4</sup> alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda XX asrning 1950-yillari ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirilgan modernizatsiyalashning ayrim yo‘nalishlari tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarda hukmron partiya mafkurasi ustuvor bo‘lib, muammoga tanqidiy yondashuv yetarli emasligi kuzatiladi. Sovet davrida G.Rizayev, R.Aminova, Y.Is‘hoqovlar<sup>5</sup> tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda esa urushdan keyingi agrar islohotlarning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari tasvirlangani bois, ularni ahamiyatli manbalar sifatida qayd etish mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri “modernizatsiyalash” atamasi qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, bu davrda qishloq xo‘jaligida qo‘riq va yangi yerlarni o‘zlashtirish, irrigatsiya-melioratsiya, mexanizatsiya, kimyolashtirish hamda fan-texnika va ilg‘or tajribalarni joriy qilish masalalari alohida o‘rganilgan. Jumladan, A.Abdunabiyev, V.Gafurov, V.Usmanov, K.Kurbonov<sup>6</sup> kabi mualliflar yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonini davlat siyosatidagi muhim yo‘nalish sifatida qayd etganlar.

Irrigatsiya va suv qurilishi tarixi masalalari alohida yo‘nalish sifatida tadqiq etilgan. Bu jarayon O‘rta Osiyo respublikalari va O‘zbekiston SSR miqyosida tahlil qilingan. A.Mamedov, A.Abdunabiyev, A.Gafurov, G.Rizayev, I.Xalikov, K.Eshchanov, R.Shamsiddinov, R.Igamberdiyev, T.Abduraxmanova, S.Mamarasulov<sup>7</sup> kabi tadqiqotchilarning asarlarida respublikada irrigatsiya-melioratsiya tizimining rivojlanishi, yangi yerlarga suv chiqarish tarixi keng yoritilgan. Masalan, A.Mamedovning tarixiy-iqtisodiy yo‘nalishdagi asarlari boy empirik materiallarga asoslanib, yirik irrigatsiya obyektlari qurilishi dinamikasi, iqtisodiy muammolar va sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish masalalarini qamrab olgan.

Qishloq xo‘jaligini moddiy-texnik ta‘minlash va mexanizatsiyalash muammolari ham turkum tadqiqotlar orqali aniqlangan. Bu ishlar mexanizator kadrlar tayyorlash, paxtachilikning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va yangi

---

<sup>4</sup> Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент, 1974. – 457 с.; Торжество ленинского кооперативного плана в Узбекистане. –Ташкент, 1970. – 376 с.; История развития хлопководства в Узбекистане. – Ташкент, 1979. – 265 с.; Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. 17 том. 1968–1984.

<sup>5</sup> Ризаев Г. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917–1965 гг.). – Ташкент, 1967. – 214 с.; Аминова Р. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане, –Ташкент, 1963. – 321 с.; Исаков Ю. Развитие хлопководство в Узбекистане. –Ташкент, 1960. – 312 с.

<sup>6</sup> Абдунабиев А. Освоения Голодной степи и молодежь (Краткий исторический очерк). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1958. – 71 с.; Гафуров А. Вопросы орошения целинных земель Голодной степи. – Ташкент: Узбекистан, 1968. – 167 с.; Усманов В. Социально-экономические последствия комплексного освоения целинных земель. – Ташкент: Узбекистан, 1975. – 139 с.; Курбонов К. Территориальная организация сельского хозяйство (На примере Голодной степи и Джизакской степей Узбекской ССР). – Ташкент: Фан, 1988. – 88 с.

<sup>7</sup> Мамедов А. Иригация и иригаторы Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1971. – 192 с.; Абдунабиев А. Борьба КПСС за увеличение орошаемых земель (на примере Голодной степи). – Ташкент: Узбекистан, 1966. – 640 с.; Гафуров А., Набиев А. История иригационного освоения Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1975. – 160 с.; Ризаев Г. Основные этапы развития иригационного строительства в Узбекистане. – Ташкент, 1960. – 18 с.; Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхандарьинской и Шерабадской долинах. – Ташкент: Фан, 1977. – 102 с.; Эшчанов К. Истории развития иригации в Хорезмской области (1946–1955 гг.). // Общественные науки в Узбекистане, 1972. – №8. – С. 148-155.; Шамсиддинов Р. Водохозяйственное строительство. Основные проблемы развития. – Ташкент, 1983. – 258 с.; Игамбердиев Р., Абдурахманова Р. История развития иригации в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975. – 193 с.; Мамарасулов С. Иригация Узбекистана. – Ташкент, 1965. – 45 с.

texnikadan samarali foydalanish kabi masalalarni qamrab olgan. M.Vilchan, O.Jamalova, R.Qurbonov, R.Ashurov, I.Sagdullayev singari mualliflar soha moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi va servis xizmatlari rivojini tahlil qilganlar<sup>8</sup>. Shuningdek, O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasining siyosiy va tashkiliy faoliyati, kolxoz tizimi tarixiga bag‘ishlangan kollektiv ishlar<sup>9</sup> ham bu masalada qimmatli ma’lumot beradi.

O‘rganilayotgan xronologik davrda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda fan-texnika yutuqlarini joriy etish va sotsializmning yuqori fan-texnika inqilobi imkoniyatlaridan unumli foydalanish masalasi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilib, ularda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va fan-texnika aloqalarini mustahkamlashning maqbul yo‘l va vositalari ishlab chiqildi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida ilmiy tadqiqotlar yutuqlaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surildi. Bu yo‘nalishda A.Oxunov, A.Tojiboyev, I.Ibragimov, R.Gafurov, T.Zininlarning<sup>10</sup> ishlari e‘tiborga molikdir. Fan-texnika taraqqiyoti masalalari O‘zbekiston SSRdagi turli ilmiy jamiyatlar tadqiqotchilarining diqqat markazida ham bo‘ldi<sup>11</sup>. Biroq yaratilgan ishlar partiya tashkilotlari faoliyatini bo‘rttirib ko‘rsatishi, kamchilik va nuqsonlarni esa imkon qadar xaspo‘shlashi bilan xarakterlanadi. Xususan, partiyaning mehnatkashlarni ommaviy ishlarga jalb etishdagi “muvaffaqiyatlari” ortiqcha targ‘ib qilingan, irrigatsiya-melioratsiya, mexanizatsiya va kimyolashtirish kabi tadbirlarning ijobiy tomonlari ta’kidlangan, ammo ularning muammoli jihatlari deyarli tilga olinmagan.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish jarayonida kimyolashtirish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etdi. Bu masala turli fan tarmoqlari tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan. Masalan, U.Mamorasulov mineral va mahalliy o‘g‘itlardan foydalanishni rejalashtirish hamda ularni maqsadga muvofiq tashkil etish muammolarini yoritib, hosildorlikning oshishida mineral o‘g‘itlarni hal qiluvchi rolini ko‘rsatgan. U, shuningdek, kimyolashtirish samaradorligi bilan tuproqqa

---

<sup>8</sup> Вылчан М. Восстановление и развитие материально-технической базы колхозного строя (1945–1958 гг.). – М.: Наука, 1976. – 280 с.; Джамалова О. Развитие материально-производственной базы колхозов Узбекистана. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. – 258 с.; Курбанов Р. Развитие материально-технической базы сельского хозяйства Узбекистана. – М.: Колос, 1970. – 111 с.; Ашуров Р. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за комплексную механизацию хлопководства в 1953–1961 гг. – Ташкент, 1966. – 275 с.; Сагдуллаев И. Борьба трудящихся Узбекистана за комплексную механизацию хлопководства (1959–1965 гг.) – Ташкент, 1969. – 124 с.

<sup>9</sup> Торжество ленинского кооперативного плана в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 376 с.

<sup>10</sup> Ахунув А. Борьба Компартии Узбекистана за повышение культурного и научно-технического уровня колхозного крестьянства в период между XXII и XXIII съездам КПСС (1956–1961 гг.). – Ташкент, 1972. – 166 с.; Таджибаев А. Колхозное крестьянство Узбекистана в борьбе за внедрение достижений и научно-технического прогресса в хлопководстве (1959-1970 гг.). –Т.: Фан, 1982. – 259 с.; Ибрагимов И. Экономическая политика КПСС и основные направления научно-технического прогресса в сельском хозяйстве. – Ташкент: Фан, 1974. –215 с.; Гафуров Р. Достижения науки и техники – решающая сила в развитии сельского хозяйства. –Ташкент: Узбекистан, 1973. – 28 с.; Зинин Т. Научно-технический прогресс в хлопководстве. – Ташкент: Узбекистан, 1975. – 114 с.

<sup>11</sup> Руководство Компартии Узбекистана интенсификацией сельского хозяйства. –Ташкент, 1979. – 641 с.; Коммунисты в борьбе за научно-технический прогресс. – Ташкент, 1980. – 576 с.; Руководство Компартии Узбекистана внедрением достижений научно-технического прогресса в сельское хозяйство. – Ташкент, 1989. – 714 с.

beriladigan moddalar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik va tuproqning tabiiy unumdorligini hisobga olish zaruriyatini ilmiy asosda ta'kidlagan<sup>12</sup>.

D.Doschanov, I.Alimov, K.Xasanjonov<sup>13</sup> singari olimlar agrosanoat majmuasi tarmoqlarida kimyoviy vositalar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning iqtisodiy-matematik usullari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini hamda ekologik omillarini tahlil qildilar. Ayniqsa, kimyolashtirishning ijtimoiy-ekologik optimumlarini aniqlashga qaratilgan metodik yondashuvlar ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. K.Xasanjonov esa, o'simliklarni himoya qilish uchun ishlab chiqarilgan kimyoviy moddalar hajmining keskin oshganligini statistik ma'lumotlar bilan asoslab berdi.

**Ikkinchi guruh** – mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan ishlar. Bu davrda sovet ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tanqidiy tahlil qilindi. Ayniqsa, 1960-1970-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moddiy manfaatdorligi masalalariga e'tibor qaratildi. A.Golovanov, B.Sidikov, N.Oblomurodov, S.Tursunov, R.Aminova<sup>14</sup> singari olimlarning asarlari shu yo'nalishdagi muhim manbalar hisoblanadi.

A.Golovanov o'z tadqiqotlarida o'zbek dehqonining yer va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilinishi sabablarini, mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil qilib bergan. R.Aminova 1917–1960-yillarda respublikada sovxoz sektori shakllanishi dinamikasini o'rganib, ilk bor ma'muriy-buyruqbozlik tizimining salbiy ta'sirini tanqid qilgan. N.Oblomurodov esa, 1970–1990-yillarda qishloq xo'jaligidagi chuqur inqiroz holatini tahlil qilib, o'zbek qishlog'ining yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish yo'llarini yoritgan. Bu tadqiqotlarda agrar ishlab chiqarish bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy-siyosiy muammolar ilmiy asosda tahlil qilindi.

Shuningdek, 1950-1960-yillarda amalga oshirilgan islohotlar tajribasi ham alohida o'rganilgan. Masalan, I.Fok 1965-yil agrar islohotlar davrida qishloq xo'jaligida bandlik muammolari va professional tayyorgarlik masalalarini ko'rib chiqqan<sup>15</sup>. M.S.Qamaritdinova esa, kompleks mexanizatsiya, elektrlashtirish, kimyolashtirish va melioratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilgan<sup>16</sup>.

Mustaqillik davrida paxtachilik, irrigatsiya-melioratsiya sohalaridagi tadqiqotlar ham davom ettirildi. A.Abdullayev, A.Razzoqov, H.Ziyoyev,

<sup>12</sup> Мамарасулов У. Минерал ўғитлардан фойдаланишни планлаштириш. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – 143 б.

<sup>13</sup> Досчанов А. Социально-экономические проблемы охраны окружающей среды (на примере Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1980. – 143 с.; Алимова И. Химизация сельскохозяйственного производства в центре внимания партийных организаций. – Ташкент: Фан, 1976. – 185 с.; Хасанджанов К.А. Эффективность средств химии в земледелии. – Ташкент: Узбекистан, 1980. – 205 с.

<sup>14</sup> Голованов А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения, 1917–1937. – Ташкент, 1992. – 169 с.; Аминова Р. История совхозов Узбекистана, 1917–1960 гг.: опыт, проблемы, уроки. – Ташкент, 1993. – 248 с.; Обломуродов Н. Аграрная политика в Узбекистане (1970–1990 гг.). – Т.: Узбекистан, 1993. – 126 с.; Shu muallif: 1917–1990 йилларда Ўзбекистонда аграр ишлаб чиқаришнинг ривожланиши (Тажриба, сабоқлар, муаммолар). Монография. – Тошкент, 2024. – 246 б.; Турсунов С. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантириш йўлидаги уриinishлар (1946–1965 йй.): Ниятлар ва натижалар. – Т.: Фан, 1994. – 156 б.

<sup>15</sup> Фок И.Д. Опыт аграрной реформы 1965 г. по развитию профессиональной занятости в сельскохозяйственном производстве Узбекистана в 60–80-е гг.: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 19 с.

<sup>16</sup> Камаритдинова М. Опыт и проблемы перевода сельского хозяйства Узбекистана на индустриальную основу во второй половине 70-х – первой половине 80-х годов: дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 152 с.

D.Yakubova, E.Erkayev, D.Rahmatova<sup>17</sup> ishlarida Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda paxtachilikning ahvoli, 1965–1985-yillardagi inqiroz dinamikasi, paxta monokulturasini ta'sirida aholi turmush darajasining pasayishi va ekologik muhitning buzilish masalalari yoritilgan.

Shu bilan birga, istiqlol yillarida suv qurilishi va irrigatsiya siyosati ham keng o'rganilgan. O.Kamilov, Q.Nasriddinov, M.Ro'ziqulova, I.Jabborova, Sh.Mirzoyev, U.Sheripov<sup>18</sup> tadqiqotlarida suv xo'jaligi boshqaruvi tizimida mahalliy mutaxassislar ishtiroki, o'zbek muhandis-gidrotexniklarining xalqaro loyihalardagi faoliyati, irrigatsiya qurilishining moddiy-texnik bazasi, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish jarayonlari, Orol fojeasi va ekologik muammolar ilmiy tahlil qilingan.

Qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish, tarmoqlarni kimyolashtirish va boshqa yo'nalishlarda amalga oshirilgan islohotlar ham mustaqil tadqiqotlarga asos bo'lgan. Jumladan, A.Ashirboyeva, N.Xudoyqulova va T.Pardayevlarning<sup>19</sup> ishlari bu jarayonlarni tahlil qilishda alohida ahamiyatga ega.

**Uchinchi guruhni** MDH davlatlari va xorijda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan modernizatsiyalash siyosati hamda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasida olib borilgan tadqiqotlarda V.Alekseyev, B. Alekseyeva, B.Mironov, V.Danilov, V.Nauxatskiy, I.Poberejnikov, L.Lazareva, N.Zelenin, S.Kovalenko, O.Verbitskaya, Y.Bikeykin va Sh.Chjuan<sup>20</sup> kabi mualliflar qishloq xo'jaligining

<sup>17</sup> Абдуллаев А. Пахта яккахокимлиги: оқибат ва сабоқлар (1917–1991 йй.). – Тошкент: Истиқлол, 2006. – 135 б.; Раззоков А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 300 б.; Зиёев Ҳ. Ўзбекистонда пахта яккахокимлиги учун кураш ва унинг оқибатлари (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент, 1999. – 182 с.; Якубова Д. Ўзбекистонда пахта яккахокимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари. – Т.: Тафаккур, 2020. – 216 б.; Эркаев Э. Совет даврида Ўзбекистоннинг пахта хомашё базасига айлантирилиши ва унинг деҳқонлар ҳаётига салбий таъсири (1917–1940 йиллар): тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 152 б.; Rahmatova D. XX asrning 50–80-yillarida sovet davlatining O'zbekistonda paxta yakkahokimligi siyosati va uning oqibatlarini (Qashqadaryo viloyati misolida): tar. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 56 b.

<sup>18</sup> Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951–1990 йй.): тар. фан. докт. ... дисс. – Андижон, 2017. – 293 б.; Насриддинов Қ. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация курилишининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари (1981–1991 йиллар): тар. фан. ном. ... дисс. – Андижон, 1994. – 146 б.; Рўзиқуллова М. Марказий Фарғона қўриқларининг ўзлаштирилиши ва суғориш тарихи (XX асрнинг 50–70 йиллари мисолида): тар. фан. фал. док. (PhD) дисс. – Қўқон, 2021. – 186 б.; Жабборова И. Қашқадарё воҳасида янги ерларнинг ўзлаштирилиши ва суғориш тизими тарихи (XX асрнинг 50–80 йиллари мисолида): тар. фан. фал. док. (PhD) дисс. – Қарши, 2021. – 157 б.; Mirzoyev Sh. 1950–1970-yillarda Buxoro oblastida irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini qurish tarixi: tar. fan. fal. dok. (PhD) diss. – Buxoro, 2024. – 163 б.; Sheripov U.A. Xorazm vohasi sug'orilish ishlar va unda sug'orish inshootlarining roli (XIX asrning oxiri – XXI asrning boshlari): tar. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Urganch, 2025. – 74 b.

<sup>19</sup> Аширбоева А. XIX асрнинг охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши: тар. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 158 б.; Худайкулова Н. 1950–1990 йилларда Хоразмда янги ерларни ўзлаштириш ва сув хўжалиги муаммолари тарихи: тар. фан. фал. докт. (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 52 б.; Пардаев Т. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини кимёлаштириш: тар. фан. ном. ... дисс. – Термиз, 1998. – 165 б.

<sup>20</sup> Алексеев В.В., Алексеева Е.В. Распад СССР в контексте теории модернизации и имперской эволюции. Отечественная история, 2003. – №5. – С. 3–17; Бикейкин Е. Аграрная модернизация и развитие сельского хозяйства среднего Поволжья: 1953–1991 гг. (на материалах Марийской, Мордовской и Чувашской АССР). Монография. Саранск НИИ гуманитарных наук при Правительстве Республики Мордовия, 2017. – 448 с.; Миронов Б. Российская модернизация и революция. – СПб., 2019. – 528 с.; Данилов В. Аграрная реформа и крестьянство в России (1861–1994 гг.) // Формы сельскохозяйственного производства и государственное регулирование. – М., 1995. – С. 150–159.; Наухацкий В. Аграрная политика в СССР в 1965–1990 годах: проблемы разработки и реализации: дисс. ... докт. ист. наук. – Зерноград, 1997. – 542 с.; Побережников И. Переход от традиционного к индустриальному обществу: теоретико-методологические проблемы

turli jihatlarini chuqur yoritishgan. Shu bilan birga, sobiq ittifoqdosh respublikalarda ham sovet qishloq xo‘jaligi agrar siyosatining muayyan yo‘nalishlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, D.Alimov, M.Abdunazarova, N.Dosbol, S.Joldasov va Sh.Mamadnosirova<sup>21</sup> ishlarida sovet hokimiyati yillarida qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti, uning qarama-qarshi tendensiyalari, samaradorlik va inqiroz omillari ilmiy tahlil etilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa, asosan, AQSH va Yevropa mamlakatlarida, sovet qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan modernizatsiyalashning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilgan. Mark B. Tauger<sup>22</sup>, Mark Xarrison<sup>23</sup>, Robert Allen<sup>24</sup>, Sheila Fitzpatrick<sup>25</sup> va W.W.Rostou<sup>26</sup> kabi olimlar asarlarida sovet agrar islohotlari xolisona tahlil qilingan.

Yuzaga kelgan tarixshunoslik manzarasiga ko‘ra, 1950–1970-yillar O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash tarixi masalasiga bag‘ishlangan maxsus, mukammal ilmiy tadqiqot ishi hanuz yaratilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 1950–1970-yillarda O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashning mohiyati, yo‘nalishlari va natijalarini kompleks o‘rganish, mazkur davr islohotlari ta‘sirida shakllangan agrar siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta‘sirini baholashdan iborat.

---

модернизации. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2006. – 240 с.; Вербицкая О. Российское крестьянство: от Сталина к Хрущеву. Середина 40-х начало 60-х годов. – М.: Наука, 1992. – 244 с.; Зеленин Н. Аграрная политика Н.С. Хрущёва и сельское хозяйство. – М.: ИРИ РАН, 2001. – 301 с.; Коваленко С. 20 лет советских реформ: была ли модернизация на Дальнем Востоке? – Владивосток: Дальнаука, 2010. – 228 с.; Лазарева Л.Н. Экономическая реформа 1965 года: предпосылки, ход, итоги. Монография. – Москва: ИИУ МГОУ, 2021. –310 с.; Чжуан Ш. Аграрная политика и развитие сельского хозяйства СССР в середине 1960-х – середине 1980-х гг.: дисс. ... канд. ист. наук. – Москва, 2019. – 205 с.

<sup>21</sup> Алимов Д. Водохозяйственное строительство и освоение целинных земель южных районов Таджикистана (20–80-е годы XX в.): дисс. ... канд. ист. наук: – Душанбе, 2020. – 400 с.; Абдуназарова М. Ирригационное строительство и освоение новых земель Вахшской долины в 40–60-е годы XX века: дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2016. – 172 с.; Досбол Н. Социально-экономическое развитие совхозов Кыргызстана (60-е – середина 80-х гг.): дисс. ... докт. ист. наук. – Бишкек, 1992. – 354 с.; Жолдасов С. Простейшие формы сельскохозяйственной кооперации Казахстана: формирование и развитие (20-30-е годы XX века.): дисс. ... докт. ист. наук. – Алматы, 1993. – 485 с.; Мамадносирова Ш. История развития аграрного сектора экономики Горно-Бадахшанской автономной области Республики Таджикистан (1917–1991 гг.). Автореферат. ... канд. ист. Наук. – Душанбе, 2024. – 25 с.

<sup>22</sup> Tauger Mark B. The 1932 Harvest and the Famine of 1933. // *Slavic Review*. Vol. 50, No. 1 (Spring 1991). – P. 70–89.

<sup>23</sup> Harrison M. *Accounting for War: Soviet Production, Employment, and the Defence Burden, 1940–1945*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 365 p.

<sup>24</sup> Allen, Robert C. Agricultural Productivity and Rural Incomes in the Soviet Union and Post-Soviet Russia. // *European Review of Economic History*. Vol. 5, No. 2 (2001). – P. 159–189.

<sup>25</sup> Fitzpatrick, Sheila. *Stalin’s Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization*. – New York: Oxford University Press, 1994. – 386 p.

<sup>26</sup> Rostow W.W. *The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1960. – 179 p.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

SSSR va O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimining nazariy-huquqiy va tarixiy asoslarini hamda urushdan keyingi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

1950–1970-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlarning mazmun-mohiyatini ochish va ularning natijalarini baholash, yangi yerlarni o‘zlashtirish va paxtachilikni rivojlantirish siyosatining samaradorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o‘rganish;

A.N.Kosigin islohotlarining O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga ta‘sirini tahlil qilish;

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashda sug‘orish tizimi, mexanizatsiya, servis xizmatlari va qayta ishlash sanoati rivojlanishini tadqiq etish;

Paxta monopoliyasi siyosati va qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish tendensiyalarini hamda ularning iqtisodiy va ekologik oqibatlarini baholash;

O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini kompleks rivojlantirish muammolarini aniqlash va umumiy xulosalar chiqarish.

**Tadqiqotning obyekti** 1950–1970-yillar O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish siyosati, uning evolyutsiyasi, agrar islohotlarning yo‘nalishlari, dinamikasi, yangi tendensiya va ziddiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** 1950–1970-yillarda O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash siyosati doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, islohotlar, agrar tarmoqning iqtisodiy samaradorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko‘rsatgan ta‘sirini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-genetik, tizimli tahlil, tarixiy-xronologik, tipologik, rejali-faktik, kontent-tahlil, retrospektiv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:**

O‘zbekiston SSR sharoitida modernizatsiyalash samaradorligiga ta‘sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar – jamiyatning an‘anaviy tuzilishi, ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimining ustuvorligi, ishchi-dehqon ommasining savodsizligi, yer munosabatlaridagi ziddiyatlar, aholining zichligi va tadbirkor o‘rta tabaqaning shakllanmaganligi qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya tadbirlariga to‘siq bo‘lib turgani aniqlangan;

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida kooperatsiya tizimini joriy etish, ularni ichki bozorda ishlab chiqarish va sotish zanjiriga integratsiya qilish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini muvofiqlashtirish va tarmoq siyosatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma‘lumotlar dalillangan;

Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish siyosati nafaqat “Markaz” tashabbusi, balki O‘zbekiston SSR hukumatining iqtisodiy manfaatlari bilan ham uzviy bog‘liqligi, ushbu jarayonning ijobiy jihatlari (yangi ish o‘rinlari yaratilishi, infratuzilmaning kengayishi) va salbiy oqibatlari (ekologik muammolarning kuchayishi, ijtimoiy ziddiyatlarning ortishi) o‘zaro uyg‘unlikda baholanib, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ta‘siri asoslab berilgan.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi an’anaviy ukladi - moddiy manfaatdorlik negizidagi kichik, tarqoq xo‘jaliklaridan rejali iqtisodiy tamoyillar asosidagi jamoa manfaati, davlat kapitalizmi sharoitidagi kolxoz, sovxoz, MTS kabi yirik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish tizimiga o‘tkazish mexanizmining modeli yaratildi.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat.

O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish to‘g‘risidagi mulohazalardan XX asrning ikkinchi yarmidagi O‘zbekiston tarixi va O‘zbekiston tarixi sahifalarini yangi materiallar bilan to‘ldirish hamda yanada boyitish mumkinligi isbotlandi; O‘zbekistonning o‘rganilayotgan davr tarixiga bag‘ishlangan tarixiy adabiyotlar va manbalarning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, fundamental adabiyotlar, davriy matbuot materiallari, monografiya, statistik, yuridik to‘plamlar, og‘zaki tarix materiallari va arxiv fondlaridagi hujjatlarga asoslanganligi, mavzuga doir xorijiy adabiyotlarning qiyosiy tahlil qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash siyosatining tatbiq etilishi, yo‘nalishlari, sabab va oqibatlari haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va tarixiy-ilmiy rivojlanishi, agrar soha tarixiy tajribasini tadqiq etish va o‘rganishga bag‘ishlangan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishga, yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** 1950 – 1970-yillar O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash tarixi ilmiy tadqiqot ishiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida kooperatsiya tizimini joriy etish, ularni ichki bozorda ishlab chiqarish va sotish zanjiriga integratsiya qilish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini muvofiqlashtirish va tarmoq siyosatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Markazi dasturlarini bajarishda keng foydalanildi (*O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Markazining 2025-yil 15-dekabr 05/06-04-928-son dalolatnomasi*). Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriylanishi qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat ta‘minoti, ta‘lim va axborot-maslahat xizmatlari sohalarida zamonaviy, integratsiyalashgan va moslashuvchan tizimni yaratish, tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini hamda ilm-fan sohasini tubdan isloh qilish tizimini takomillashtirishning nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston SSR sharoitida modernizatsiyalash samaradorligiga ta‘sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar – jamiyatning an’anaviy tuzilishi, ma‘muriy-

buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimining ustuvorligi, ishchi-dehqon ommasining savodsizligi, yer munosabatlaridagi ziddiyatlar, aholining zichligi va tadbirkor o'rta tabaqaning shakllanmaganligi qishloq xo'jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya tadbirlariga to'siq bo'lib turgani borasidagi ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston fermerlar kengashi faoliyatida keng foydalanildi (*O'zbekiston fermerlar kengashining 2025-yil 2-oktabrdagi 01/03-0389-sonli ma'lumotnomasi*). Mazkur ilmiy natijalar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar Respublika fermerlar uyushmasi faoliyatini samarali tashkil qilishda, fermer xo'jaliklarida yer huquqlarini aniqlash, uzoq muddatli ijara shartlarini belgilash, yer resurslaridan oqilona foydalanish, kichik va o'rta fermer xo'jaliklarini mikrokreditlar bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligida yoshlarni tadbirkorlikka jalb etishda tatbiq etilib, qishloq xo'jaligini yanada samarali va barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda;

Qo'riq yerlarni o'zlashtirish siyosati nafaqat "Markaz" tashabbusi, balki O'zbekiston SSR hukumatining iqtisodiy manfaatlari bilan ham uzviy bog'liqligi, ushbu jarayonning ijobiy jihatlari (yangi ish o'rinlari yaratilishi, infratuzilmaning kengayishi) va salbiy oqibatlari (ekologik muammolarning kuchayishi, ijtimoiy ziddiyatlarning ortishi) o'zaro uyg'unlikda baholanib, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ta'siri bilan bog'liq ilmiy xulosa va natijalardan Buxoro davlat universitet tomonidan 2024-2025-yillarda bajarilgan ALM-202403110240 – "Buxoro viloyatining rekreatsion-turistik xaritasini va yangi turistik marshrutlarni yaratish" nomli amaliy loyihani bajarishda keng qo'llanildi (*Buxoro davlat universitetining 2025-yil 14-oktabrdagi 01-6229-sonli ma'lumotnomasi*). Ilgari surilgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar grant loyihasini takomillashtirishga, fanlararo yondashuv asosidagi murakkab tizimlarni tadqiq etishga, shuningdek, loyihaning nazariy-metodologik ahamiyati va uning ilmiy-prognostik (loyihalashtirish va prognozlashtirishdagi) o'rmini aniqlashga xizmat qildi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi an'anaviy ukladi - moddiy manfaatdorlik negizidagi kichik, tarqoq xo'jaliklaridan rejali iqtisodiy tamoyillari asosidagi jamoa manfaati, davlat kapitalizmi sharoitidagi kolxoz, sovxoz, MTS kabi yirik qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimiga o'tkazish mexanizmining modeli yaratilgani to'g'risidagi ma'lumotlar "O'zbekiston rahbarlarining 1945–1983-yillardagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati" mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda keng foydalanildi (*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 13-oktabrdagi 1/3-618-sonli ma'lumotnomasi*). Tadqiqotda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan siyosati mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman va konferensiyada, shu jumladan, 6 ta xalqaro konferensiya, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyada aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 10 ta maqola respublika va 1 ta maqola xorijiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, to‘rt bob, o‘n bir paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 210 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligiga asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**SSSRda qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimi va undagi muammolar**” deb nomlanib, unda sovet qishloq xo‘jaligi tizimining shakllanish bosqichlari, uning ilmiy-nazariy, huquqiy-me‘yoriy asoslari, tarixiy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, sovet nazariyotchilari tomonidan ilgari surilgan sotsialistik xalq xo‘jaligi nazariyasi, uning bevosita tarkibiy qismi bo‘lgan yirik sotsialistik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimi nazariyasining mohiyati, o‘rni va undagi ziddiyatlar yoritilgan. Bu nazariya sinfiy jamiyatdan yangi, tenglikka asoslangan sotsialistik jamiyatga o‘tish jarayonini anglatardi. Unda boylikning kam sonli toifalar qo‘liga to‘planishiga barham berish, mehnat sharoitlarini yengillashtirish va ishlab chiqarishni ommaviy tashkil qilish g‘oyalari ilgari surildi<sup>27</sup>. Eski jamiyatdan yangi jamiyatga o‘tish jarayoni sinfiy kurash, sotsialistik inqilob va proletariat diktaturasi orqali amalga oshishi nazariy jihatdan asoslab berildi. Bu jarayonda feodalizmdan kapitalizmga o‘tishning ikki yo‘nalishi – prusscha (pomeshchik-burjuaziya) va amerikacha (dehqon-burjuaziya) shakllari umumlashgan holda namoyon bo‘ldi. Agrar dastur pomeshchik-demokratik inqilobdan sotsialistik inqilobga o‘tish va uning asosida yirik sotsialistik qishloq xo‘jaligini shakllantirishni maqsad qiladi. V.A.Chayanova ta’kidlaganidek: “Sotsializmni jamiyat ehtiyojlariga va zamon talabiga mos ravishda qishloq xo‘jaligini qayta tashkil qilmasdan tasavvur etib bo‘lmaydi. Sotsializm – mayda tovar ishlab chiqarishdan yirik, uyushgan va jamoaviy ishlab chiqarishga o‘tish demakdir. Yakka tartibdagi xutor va dehqon xo‘jaligidan – jamoaviy xo‘jalikka o‘tish lozim”<sup>28</sup>.

Yangi tuzumga o‘tish inqilobiy harakatlarsiz, kuch ishlatish vositalarini qo‘llamasdan turib amalga oshirilishi mumkin emasdi. Shu maqsadda xalq xo‘jaligida armiya va militsiyaga tayangan “harbiy kommunizm” siyosati (1918–1921) joriy etildi. Bu siyosat mamlakat xo‘jaligini davlat tomonidan to‘liq boshqarishga asoslangan, yagona “ideal fabrika” modelini barpo etishni ko‘zda

<sup>27</sup> Чаянов А.В. Природа крестьянского хозяйства и земельный режим. – Москва, Издание Лиги Аграрных Реформ, 1918. – С. 125.

<sup>28</sup> Свенкович Е.Г. П.И.Лященко – историк народного хозяйства СССР.: автореф. ... канд. ист.наук. – Харьков, 1990. – С. 26.

tutardi<sup>29</sup>.

Sovet rahbarlari uchun tinchlik sharoitida “harbiy kommunizm”ni davom ettirish davlatni inqirozga olib borishi aniq bo‘ldi. “Dohiy” bu haqda ochiqcha: “Bu sovet davlati va proletariat diktaturasini muqarrar halokatga yetaklaydi” deb baho bergan. Xalq xo‘jaligidagi keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ta’sirida sovet hukumati “harbiy kommunizm”dan voz kechib, iqtisodiyotni tiklashga qaratilgan va muayyan muddatga mo‘ljallangan yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ni joriy etdi. Natijada qishloq xo‘jaligini yuksaltirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun shart-sharoit yaratildi.

Dehqonlarni ishlab chiqarish kooperatsiyalariga jalb etish jarayoni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kontraktatsiya qilish tizimi bilan chambarchas bog‘liq edi. Kontraktatsiya orqali kooperativlar vositachilik vazifasini bajarib, ishchilar va dehqonlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayonini yo‘lga qo‘yish imkonini yaratdi. Bu esa, sotsialistik sektorning ta’sirini kuchaytirdi hamda mayda tovar ishlab chiqarish shaklidagi dehqon xo‘jaliklari faoliyatida muhim rol o‘ynadi. Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi faoliyati, asosan, kredit resurslarini ko‘paytirish, ish hayvoni, qishloq xo‘jaligi inventarlari, saralangan urug‘lar va boshqa zarur vositalar bilan ta’minlashni tashkil etish orqali qishloq xo‘jaligini yuksaltirishga qaratildi<sup>30</sup>.

Bu g‘oya (NEP) sotsialistik jamiyat qurish nazariyasida nazarda tutilmagan bo‘lib, unga zid jihatlari ham mavjud edi. Ayniqsa, qishloq joylarida savdoning butunlay xususiy kapital ixtiyoriga o‘tishi, hukumat uchun jiddiy xavotir tug‘diridi. Oqibatda, majburiy va tezashtirilgan usullar asosida joriy etilgan kollektivlashtirish siyosati ta’sirida NEP bekor qilindi va “Harbiy kommunizm” tamoyillaridan faol foydalanishga qaytildi. Demokratik asosda faoliyat yuritgan institutlar – Kolxozsentri, Kolxozsoyuz va qator kooperatsiya turlari tugatilib, kolxozlar ustidan hukumat va partiya apparatining qat’iy nazorati o‘rnatildi<sup>31</sup>. Mazkur choralar stalinizm davri boshlanayotganligidan dalolat beradi. I.V.Stalinning ta’kidlashicha, “...qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish – qishloqda sotsializm poydevorini barpo etish yo‘lidir. Mashina-texnika asosida yo‘lga qo‘yilgan yirik sotsialistik ishlab chiqarishsiz qishloqda sotsializm bo‘lishi mumkin emas”<sup>32</sup>. Xususan, azaliy muammo – mayda va tarqoq dehqon xo‘jaliklarini yirik kollektiv ishlab chiqarish shakliga o‘tkazish masalasida sohani yangi va yuqori unumdor texnikalar bilan uzluksiz ta’minlash, jarayonda Narkomzem organining ijara punktlari hamda kooperatsiya tizimi muhim vosita sifatida ko‘rildi. Ya’ni, “...sotish va ta’minlash sohasida kooperatsiya va davlat organlari orqali dehqon xo‘jaliklari qamrovini kengaytirish, istiqbolda esa tarqoq dehqon xo‘jaliklarini uyushgan, yirik, intensiv va mashinalashgan jamoaviy

<sup>29</sup> История экономических учений / Под ред. В.Автономова, О.Ананьина, Н.Макашевой. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 45.

<sup>30</sup> Ўзбекистон Коммунистик партияси съездларининг резолюцияси ва қарорлари. –Т.: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1958. –Б. 12.

<sup>31</sup> Вербицкая О.М. Российское крестьянство: от Сталина к Хрущёву. Середина 40-х – начало 60-х годов. Отв. ред. И. Е. Зеленин. – М.: Наука, 1992. – С. 15.

<sup>32</sup> Вопросы ленинизма / И.В.Сталин. 11-е изд. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1952. –С. 394.

xo‘jalik shakliga asta-sekin o‘tkazish” maqsad qilindi<sup>33</sup>.

1917-yilda qabul qilingan “Yer to‘g‘risida”gi dekret sotsialistik qishloq xo‘jaligi tizimining huquqiy asosini yaratdi. U yerga bo‘lgan har qanday xususiy egalik huquqini bekor qilib, barcha yerlarni umumxalq mulki sifatida e‘lon qildi. Shu yilning 3-noyabrda “Volost komiteti to‘g‘risida”gi dekret va yana uchta hujjat e‘lon qilindi<sup>34</sup>. Yangi tizimda huquqiy asoslar nazariy talablardan kelib chiqib, amaliyotda yuzaga kelgan kamchiliklar hisobga olinib, muntazam ravishda tuzatishlar kiritib borildi. Tor doiradagi, nazariy g‘oyalarga suyangan qonunchilik amaliyoti esa, sotsialistik xo‘jalikni tashkil etishda muayyan to‘siqlar tug‘dirdi. Masalan, “Partiyaning kooperatsiya ishi to‘g‘risida”gi qaror bu holatga yaqqol misol bo‘lib, turli ko‘rinishdagi kooperatsiyalar o‘rtasida o‘zaro aloqa va mahalliy uyushmalarni tashkil qilish zarurati e‘tirof etildi. Biroq kooperativ hamkorlikdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimligi, masalaning noaniqligi va yetarli tajriba yo‘qligi ham ta‘kidlandi<sup>35</sup>.

1947-yilda Dehqonchilik Ministrligi negizida SSSR Qishloq Xo‘jaligi Ministrligi tashkil etildi. Yangi ministrlik tinchlik sharoitida, sotsialistik qurilish talablariga mos ravishda ishlashi nazarda tutildi<sup>36</sup>. Ministrlik g‘allachilik, ko‘k choy urug‘chiligi, MTSlar, chorvachilikda zotli nasllar va sun‘iy urug‘lantirish ishlarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, sovxozlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi tendensiyalar belgiladi.

Sotsialistik qishloq xo‘jaligi tizimi modernizatsiyasining 1953-yil birinchi choragidan 1958-yilgacha bo‘lgan bosqichni “innovatsion” deb baholash mumkin. Chunki bu davrdan oldin ham, keyin ham, hatto SSSR parchalanganigacha qadar ham soha bunchalik radikal tarzda qayta isloh etilmadi. G.Malenkov tomonidan ilgari surilgan kompleks islohotlar dasturi kolxoz va kolxozchilarni moddiy rag‘batlantirish, ularning turmush darajasini oshirish, aholini iste‘mol tovarlari bilan, sanoatni esa xomashyo bilan ta‘minlash orqali sovet xalqi farovonligini ta‘minlash, asosiy e‘tibor iqtisodiy stimullarga qaratilgan edi. 1953-yildan boshlab, go‘sht, sut, jun, kartoshka va sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va davlatga topshirish narxlari oshirildi. Shu bilan birga, kolxozchilarga ortiqcha mahsulotni kolxoz bozorlari va iste‘mol kooperatsiyalari orqali sotish uchun keng imkoniyatlar yaratildi<sup>37</sup>. Ammo hokimiyat uchun kurashda dastur muallifi g‘alabani boy berdi.

1953-yil 3-sentabrda bo‘lib o‘tgan KPSS Markaziy Komiteti plenumida N.S.Xrushchov “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish chora-tadbirlari” mavzusida ma‘ruza qildi. U qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish dasturi bo‘lib, unda sohadagi holat, mo‘l-ko‘lchilik vazifalari, chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari,

<sup>33</sup> XV Съезд Всесоюзной Коммунистической Партии (б). – Москва: Государственное издательство, 1928. – С. 73.

<sup>34</sup> Аминова Р.Х. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917–1920 гг.). – Тошкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1963. – С. 80.

<sup>35</sup> Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и Пленумов ЦК (1898–1988) / КПСС; Ин-т марксизма-ленинизма при ЦК КПСС; под общ. ред. А.Г.Егорова, К.М.Боголюбова. 9-е изд., доп и испр. – М., 1983–1990. 16 т. – В надзаг.: Ин-т марксизма-ленинизма при ЦК КПСС. Т. 2. 1917–1922. 1983. – С. 586.

<sup>36</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2365-yig‘majild, 45-varaq.

<sup>37</sup> Маленков Г.М. Речь на пятой сессии Верховного Совета СССР. –М.: Госполитиздат, 1953. – С. 14.

kartoshka va sabzavot yetishtirish ishlarini takomillashtirish, g'alla hamda texnik ekinlar hosildorligini ko'tarish, mashina-traktor stansiyalarining faoliyati, qishloq xo'jaligi organlari xodimlarining ishi, kolxozlarga agronomik va zootexnik yordam ko'rsatish, qishloqda partiyaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirish masalalari atroflicha yoritilgan edi<sup>38</sup>. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, 1953-yil sentabrda qabul qilingan qaror G.Malenkov dasturining moslashtirilgan varianti edi.

G.Malenkov va N.Xrushchyov hamkorligida ishlab chiqilgan strategiyada qator kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, tovar-pul munosabatlarini rivojlanish omili sifatida e'tirof etilgan. 1950-yillar oxiriga qadar sohani modernizatsiya qilish maqsadida KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti tomonidan 23 ta qaror qabul qilindi. Shuningdek, qishloq, suv xo'jaligi va sovxoz organlari tomonidan qabul qilingan qator qarorlar ham hisobga olinsa, kompleks o'zgarishlar amalga oshirilgani yaqqol namoyon bo'lardi. Biroq N.S. Xrushchyovning radikal va ko'p hollarda asossiz tashabbuslari partiya elitasi ichida qarshilik guruhlarini faollashtirdi. Natijada, u modernizatsiya va arxaizatsiya o'rtasida muvozanatni yo'qotib, siyosiy marginalga aylandi. 1965-yil 26 martda qabul qilingan qarorda esa shu sentabr qarorining g'oyasi saqlab qolingan holda direktiv boshqaruv tizimidan voz kechish, qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish, ishlab chiqaruvchilarga muayyan mustaqillik berish kabi yo'nalishlar kiritildi.

**“O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashning zarurligi va uning asosiy yo‘nalishlari”** deb nomlangan ikkinchi bobda 1950–1970-yillar O‘zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish borasida radikal o'zgarishlar yoritiladi. O‘zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning asosiy bosqichlari, undagi ijobiy va salbiy jihatlar, shuningdek, bu siyosatning uzoq muddatli oqibatlari tahlil qilinadi.

1953-yil 9-10-oktabr Plenumida O‘zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar ichida paxta xomashyosi yetkazib beruvchi asosiy hudud sifatida yana bir bor e'tirof etilgan. Aslida, paxtachilik bilan bog'liq muammolar butun qishloq xo'jaligi tizimini tubdan modernizatsiya qilish zaruratini ko'rsatdi. Paxtachilikda kvadrat-uyalab ekish va ishlov berish, beda urug'chiligi, paxta hosilini rejalashtirish, dehqonchilik institutini tashkil etish kabi yangiliklar joriy etildi<sup>39</sup>. Chorva uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratish, chorva va parrandachilikni maxsus binolar bilan ta'minlash, chorva mahsuldorligini sezilarli darajada oshirish, chorva bosh sonini tez sur'atda ko'paytirish va chorva zotini yaxshilash hamda 2-3 yil ichida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin oshirish rejalashtirildi<sup>40</sup>. Kartoshka, sabzavot, g'alla, moyli va boshqa texnik ekinlar yetishtirish va tayyorlashni kengaytirishdan iborat bo'ldi<sup>41</sup>. Markaz respublikada urug'chilik tizimini yo'lga qo'yish tashabbusi bilan chiqdi. Binobarin, tog'li hududlarda kartoshkaning ertapishar navlari, vodiylarda esa ertapishar va o'rtapishar navlarini yetishtirish yo'lga qo'yildi. Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston ASSRda pillachilik uchun barqaror ozuqa bazasini yaratish,

<sup>38</sup> Маленков Г.М. Речь на пятой сессии Верховного Совета СССР. – М.: Госполитиздат, 1953. –С. 15.

<sup>39</sup> Бухоро viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 789-yig'majild, 43-varaq.

<sup>40</sup> Бухоро viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 789-yig'majild, 43-varaq.

<sup>41</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 90-fond, 9-ro'yxat, 3197-yig'majild, 25-varaq.

g'allachilikni mexanizatsiyalash, tog'oldi va taqir yerlarda uzumchilikni rivojlantirish, boshoqli ekinlar yetishtirish kabi istiqbolli vazifalar belgilandi<sup>42</sup>. Islohotlar orasida tovar-pul munosabatlariga asoslangan yondashuv – kolxoz bozorini rivojlantirish, ayniqsa, kartoshka va meva-sabzavot savdosini kengaytirish orqali kolxozlar pul daromadi va mehnat kuni qiymatini ko'tarishga harakat boshlandi.

1954-1955-yillarda modernizatsiya tadbirlari uchun 34,4 milliard rubl kapital mablag' ajratildi, bu esa o'tgan to'rt yillik ko'rsatkichdan 138 foiz ko'p edi. Natijada, 1954-1955-yillarda kolxozlarning tovar ishlab chiqarishdan pul ko'rinishidagi daromadlari 20 milliard rublga yetdi<sup>43</sup>. Paxtachilikda urushdan oldingi darajadan 70 foiz yuqori hosil olindi, ayrim xo'jaliklarda hosildorlik 30-40 sentnerga yetdi. 1955-yilda paxta hosildorligi gektariga 18,9 sentner bo'lgan bo'lsa, 1959-yilda 22,9 sentnergacha ko'tarilib, 4 sentnerga o'sish qayd etildi<sup>44</sup>. Chorvachilik sohasida ham ijobiy dinamika kuzatildi: 1950-yildagi go'sht ishlab chiqarish 30,5 ming tonnaga nisbatan 1959-yilda 86,2 ming tonnaga yetdi<sup>45</sup>. qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 1953-yildan 1961-yilgacha sezilarli o'sdi: tolali o'simliklar 3,3 barobarga, sabzavot 86 foizga, kartoshka 27 foizga, meva va uzum 2,7 martaga, go'sht 2,1 martaga, sut 2,4 barobarga, ipak esa 9 foizga ko'paydi<sup>46</sup>.

1960-yillar oxirlaridan qishloq xo'jaligida direktiv boshqaruv uslubi amalda yana qayta tiklandi. O'zbekiston SSR rahbari Sh.R.Rashidov 1962-yil mart plenumida shunday degan edi: "Biz mavjud vaziyatni hisobga olmayapmiz, 1953-yil bilan solishtirganda respublikada aholi soni deyarli 30 foizga ko'paygan, so'nggi yetti yilda ularning daromadlari 40 foizga o'sdi, tabiiyki, bu keng iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keladi, bizda iste'mol mollariga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarishga nisbatan yuqori"<sup>47</sup>.

1954-yildan Sovet hukumatining yangi va qo'riq yerlarni o'zlashtirish kampaniyasi yangi bosqichga ko'tarildi. 1954-yil fevral-mart oylarida bo'lib o'tgan KPSS Markaziy Komiteti Plenumi qarorlarida ommaviy qo'riq o'zlashtirish siyosati mustahkamlanib, amaliyotga tatbiq etildi. Holbuki, qo'riq o'zlashtirish Markaziy Osiyoda sovet hokimiyatining ilk yillaridanoq amalga oshirila boshlangan edi. 1920-yillar o'rtalarida Ko'lob oblastida sug'oriladigan yerlar maydoni 16 ming gektarga, O'rtabuz tog' yonbag'rida esa, 20 ming gektarga oshirildi. 1934–1940-yillarda O'zbekiston SSR hududida 39 ming gektar<sup>48</sup> yangi va qo'riq yer o'zlashtirilib, qishloq xo'jaligi oborotiga kiritildi. Murg'ob vohasida sug'oriladigan yerlar maydoni 1950-yildagi 82,4 ming gektardan 1965-yilga kelib

<sup>42</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). В 4-х т. Т.2. 1938–1959 [Сост.: Р.Я.Раджапова, П.Г.Ким, С.А.Дмитриев и др]. – Т.: Узбекистан, 1988. – С. 610.

<sup>43</sup> XX съезд Коммунистической партии Советского Союза. 14–25 февраля 1956 года. Стенографический отчет. Т. I. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1956. – С. 85.

<sup>44</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 38-ro'xat, 687-yig'majild, 45-varaq.

<sup>45</sup> Народное хозяйство УзССР в 1965 г. Статистический сборник. – Т.: Узбекистан, 1966. – С. 86.

<sup>46</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 90-fond, 10-ro'xat, 5489-yig'majild, 98-varaq.

<sup>47</sup> Правда Востока. 10 апрель, 1962 год.

<sup>48</sup> Джалилов Х.М. Хлопковые совхозы Голодной степи и их развитие. – Ташкент: Государственное издательство Узбекской ССР, 1959. – С. 25.

144,2 ming gektarga yetdi<sup>49</sup>.

Yangi yerlar, asosan, ekiladigan ekin turiga qarab tasniflanadi. Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalari paxtachilikka ixtisoslashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Volgabo'yi, Ural, Sibir, Uzoq Sharq va Qozog'iston SSR hududlari g'alla yetishtirishga yo'naltirildi. SSSRda paxtachilik, asosan, Osiyo qismidagi janubiy hududlar – 37° va 43° shimoliy kengliklar orasida joylashgan ikki asosiy mintaqada: O'rta Osiyo va Kavkazortida rivojlandi. Tabiiy sharoit jihatidan ular keskin farq qilardi: O'rta Osiyoda iqlim nisbatan quruq, yog'ingarchilik kam, bahor va yoz fasllarida harorat yuqori, kuzda esa pastroq bo'lsa, Kavkazortida nisbatan yengil iqlim kuzatilardi<sup>50</sup>. O'rta Osiyoda O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR va Tojikiston SSR, asosan, paxtachilikka ixtisoslashgan edi. Binobarin, sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirmasdan turib paxtachilikda barqaror yutuqlarga erishib bo'lmasligi haqida qat'iy tasavvur mavjud edi.

1954-yilda O'zbekiston SSRda paxta maydonlari 1148,6 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 1955-yilda 1194,5 ming gektar, 1958-yilda esa, 1380 ming gektarga yetkazish rejalashtirildi. Shu maqsadda 1955-yilda 650 mln so'm mablag' ajratildi. Shuning 400 mln so'mi davlat kapital qurilishidan, 250 mln so'mi esa, kolxoz mablag'lari hisobidan ajratildi<sup>51</sup>. Shubhasiz, paxtachilikdagi yutuqlarni yangi yerlarni o'zlashtirish emas, balki progressiv agrotexnik usullarni joriy qilish ta'minlagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Partiya tomonidan paxtani kvadrat-uyalab ekish usulining dolzarbligi maxsus ta'kidlandi<sup>52</sup>. Xususan, Amin Niyozov qo'riq yerlarda paxtachilikni rekord darajaga yetkazish haqidagi Xrushchov tarafdorlari taklifiga qarshi chiqib, bu tadbirlar respublikaning ekologik holati uchun halokatli bo'lishini ta'kidlagan hamda o'rniga paxtani qayta ishlash sanoatini rivojlantirishni taklif etgan<sup>53</sup>. Bu jarayonda ekstensiv usullar (yangi yerlarni o'zlashtirish) passiv va samarasiz yo'l sifatida namoyon bo'lsa, intensiv usullar (ilg'or agrotexnika) hayotiy va zarur chora sifatida ko'rila boshlandi.

Nuriddin Muhiddinov rahbarligi davrida esa, qo'riq kampaniyasiga yondashuv o'zgardi. Ya'ni, yangi yerlarni o'zlashtirish va paxtachilikni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi. O'ziga xoslik shunda bo'ldi: suv xo'jaligi, yerlarni o'zlashtirish, madaniy-maishiy ishlari kompleks tarzda tashkil etildi. Besh yil mobaynida 34 ta davlat xo'jaligi, 34 ta paxta tozalash zavodi, ko'chirib kelinganlar uchun turarjoylar, yo'llar, kanallar va boshqa suv xo'jaligi inshootlari qurilishi belgilandi. Loyihani amalga oshirish uchun 4 mlrd 600 mln so'm mablag' va zarur texnika hamda qurilish ashyolari ajratildi<sup>54</sup>.

Mirzacho'lni o'zlashtirishga sarflangan davlat budjeti xarajatlari yil sayin

<sup>49</sup> Каракумский канал и изменение природной среды в зоне его влияния. – Москва: Наука, 1978. – С. 126.

<sup>50</sup> Paxtachilik. Qishloq x'ujalik texnikumlarining studentlari uchun darслик. А.И.Шлейхер ва бошқ. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 21.

<sup>51</sup> Қизил Ўзбекистон. 12 февраль, 1954 йил.

<sup>52</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 90-fond, 9-ro'uxat, 2558-yig'majild, 14-varaq.

<sup>53</sup> Шигабдинов Р. Амин Ниязов. – Ташкент: Ўл-зиу-закват, 2019. – С. 22.

<sup>54</sup> Мухиддинов Н. Кремлда ўтган йилларим: Сталин, Маленков, Хрушчëв, Брежнев, Андропов билан биргаликда ишланган уруш, меҳнат ва партия фахрийси эсдаликлари. К. И. КПСС Марказий Комитети ва унинг сиёсий бюроси фаолияти (50-йиллар). –Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б. 219.

ortib bordi: 1957-yilda 250 mln rubl, 1958-yilda esa, 550 mln rubl<sup>55</sup> ajratildi. N.S.Xrushchyov KPSS Markaziy Komitetining 1959-yil dekabr plenumidagi nutqida qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirishning asosiy yo‘li qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish emas, balki ilg‘or agrotexnik tadbirlarni joriy etish ekanini ta’kidladi. Uning ta’biri bilan aytganda, “Qishloq xo‘jaligida faqat maydonlarni kengaytirish emas, balki har bir gektardan, sarflangan har bir mehnat birligidan ko‘proq mahsulot olishga yo‘naltirilgan intensiv usullarni joriy etish lozim”<sup>56</sup>.

1960-1970-yillarda O‘zbekiston SSRda yangi yerlarni o‘zlashtirish va paxtachilik sohasida sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Mirzacho‘lda yerlarni o‘zlashtirish boshlangach, yetti yil mobaynida sarflangan 8 milliard rubl davlat budjetiga 26 milliard rubl sof daromad keltirdi. Keng ko‘lamli irrigatsiya va melioratsiya ishlari natijasida 1956–1981-yillarda Mirzacho‘lda 300 ming gektar yer o‘zlashtirilib, qishloq xo‘jaligi oborotiga kiritildi<sup>57</sup>.

Aleksey Nikolayevich Kosigin sovet davlati boshqaruvida uzoq yillar faoliyat ko‘rsatgan taniqli iqtisodchi va siyosatchidir. Uning “Kosigin islohotlari” yoki “Kosigin kursi” deb nomlangan iqtisodiy islohotlar dasturi o‘z davridagi sovet iqtisodiyotida, shu jumladan, O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligida chuqur iz qoldirgan edi. U 1964–1980-yillarda SSSR Ministrlar Soveti raisi sifatida faoliyat yuritib, davlat boshqaruvida eng uzoq muddat rahbarlik<sup>58</sup> qilgan shaxslardan biriga aylandi. Kosigin islohotlari markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy stimullar, xo‘jalik hisobi va moddiy manfaatdorlik prinsiplarini joriy etishga asoslangan edi. 1965-yil mart Plenumida qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish dasturini tasdiqlandi. Bu yo‘nalishda dehqonchilik va chorvachilikni kimyolashtirish, sug‘orish tizimini kengaytirish, mexanizatsiyani to‘liq amalga oshirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kabi vazifalar belgilandi. Shu bilan birga, kolxoz va sovxozlar uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va davlatga topshirishning besh yillik qat’iy rejaları joriy etildi<sup>59</sup>.

O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari (1965-yil aprel): iqtisodiy, ijtimoiy, moddiy-texnik ta’minot, tashkiliy-boshqaruv yo‘nalishlari belgilandi.

*Iqtisodiy yo‘nalish*, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tayyorlov tashkilotlari orqali kreditlash tartibi bekor qilindi. Ishlab chiqaruvchilar davlat bankidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar<sup>60</sup>. Kolxoz va sovxozlar iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida xarid narxları oshirildi, don yetishtirgan xo‘jaliklarga qo‘shimcha ustama narxlar belgilandi<sup>61</sup>. Paxtachilikda 50 foiz ustama

<sup>55</sup> Комилов О. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951–1990 йй.): тар. фан. докт. ... дисс. – Андижон, 2017. – Б. 147-148.

<sup>56</sup> Глиняний В.Г., Ржеский Г.К. Мўл ва арзон пахта ҳосили етиштириш (Ўзбекистон колхоз ва совхозларида комплекс механизациялашган бригадаларнинг иш тажрибалари). – Т.: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1961. – Б. 13.

<sup>57</sup> Эргашев Н. Руководство компартии Узбекистана освоением целинных земель. – Ташкент: Узбекистан, 1958. – С. 49.

<sup>58</sup> 42 yil mobaynida hukumat a’zosi, SSSR moliya, yengil va oziq-ovqat sanoati ministrlıkları ministri, Davlat plan komiteti raisi mas’ul lavozimlarida faoliyat yuritgan.

<sup>59</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). В 4 т. (Т. 3. 1960–1975). – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 279.

<sup>60</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 41-ro‘uxat, 1654-yig‘majild, 45-varaq.

<sup>61</sup> КПСС XXIII съездининг материаллари. – Т.: Ўзбекистон, 1966. – Б. 256.

joriy etildi, qishloq xo‘jaligi mashinalari va ehtiyot qismlari narxi pasaytirildi.

*Ijtimoiy yo‘nalish*, 1965-yil 1-iyundan kolxoz a‘zolari qarilik va nogironlik yetganda hamda mehnat layoqatini yo‘qotganida nafaqa tayinlandi<sup>62</sup>. Qurilish kreditlari miqdori ittifoqdosh respublika Ministrlar Soveti tomonidan 700 rubldan 1500 rublgacha miqdorda belgilandi<sup>63</sup>. O‘zbekiston SSRda moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan kolxozlarning 28,3 mln so‘mlik qarzlaridan kechildi. Natijada, 143 ta iqtisodiy qoloq kolxozdan 132 tasi qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Kolxozlarning sof daromadi 4 yil ichida 48 foizga o‘shib, 1965-yilga kelib 1 milliard 619 million rublni tashkil etdi<sup>64</sup>.

*Moddiy-texnik ta‘minot*, asosiy e‘tibor qishloq xo‘jaligini kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kimyolashtirish, irrigatsiya-melioratsiyani rivojlantirishga qaratildi.

*Tashkiliy-boshqaruv yo‘nalishi*, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning yangi strategiyasi markazlashgan byurokratik boshqaruvdan shaxsiy tashabbus va moddiy manfaatdorlikka asoslangan mustaqil va intensiv yo‘nalishga burildi.

“Kosigin kursi” qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va har bir xo‘jalikni tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirilgan holda rivojlantirish dasturini hayotga tatbiq etdi. Bu jarayonda paxtachilikka ixtisoslashgan kolxoz va sovxozlar soni ortib, Mirzacho‘l, Surxon-Sherobod vodiysi va Qarshi cho‘li kabi yirik paxtachilik hududlari tashkil etildi. 1964–1970-yillarda respublikada 243 ta ixtisoslashgan sovxoz tashkil etildi. Jumladan, 78 ta paxtachilik, 29 ta sholikorlik, 10 ta uzumchilik-bog‘dorchilik, 13 ta sabzavot-sutchilik, 10 ta sutchilik, 20 ta bo‘rdoqichilik, 24 ta qorako‘lchilik va 5 ta sabzavot-go‘shchilik sovxozlari<sup>65</sup>.

O‘zbekiston SSRda sakkizinchi va to‘qqizinchi besh yilliklar davomida, avvalo, xo‘jalik, keyinchalik xo‘jaliklararo va, nihoyat, hududiy (rayon, oblast, respublika) ixtisoslashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Chunonchi, xo‘jaliklarni yiriklashtirish hisobiga 148 ta zamonaviy sovxoz tashkil etildi. Shuningdek, ishlab chiqarishni konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish jarayonlarida respublikada 42 ta yangi qishloq rayoni va Jizzax oblasti tuzildi<sup>66</sup>. Kosigin islohotlari natijasida sakkizinchi besh yillik mobaynida O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yalpi hajmi 1960-yilga nisbatan 22 foizga, 1970-yilga kelib esa, 1965-yilga nisbatan 33 foizga o‘shdi. Yillik o‘rtacha o‘shish sur‘atlari 4,1 foizdan 5,8 foizgacha ko‘tarildi<sup>67</sup>.

1968-yilda to‘la xo‘jalik hisobida faoliyat yuritgan 18 ta sovxoz davlatga paxta topshirish rejasini 109,6 foizga, shuningdek, don va go‘sh topshirish ko‘rsatkichlarini ham ortig‘i bilan bajardi. Bir ishlovchi hisobiga to‘g‘ri keladigan yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1967-yilda nisbatan oshdi. Shu yili bunday xo‘jaliklarda rejada belgilangan 18,1 mln so‘m o‘rniga 22,7 mln so‘m foyda olinib,

<sup>62</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 41-ro‘yxat, 1654-yig‘majild, 58-varaq.

<sup>63</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 41-ro‘yxat, 2654-yig‘majild, 45-varaq.

<sup>64</sup> Правда Востока. 1966 год, 5 марта.

<sup>65</sup> Вухоро viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro‘yxat, 689-yig‘majild, 56-varaq.

<sup>66</sup> Вухоро viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro‘yxat, 654-yig‘majild, 14-varaq.

<sup>67</sup> Зиёдуллаев С. Ўзбекистон янги беш йилликда. 1966–1970 йиллар. – Т.: Ўзбекистон, 1968. – Б. 58-59.

iqtisodiy rag‘batlantirish fondlariga 8 mln so‘mdan<sup>68</sup> ziyod mablag‘ yo‘naltirildi. 1970-yillarda O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmi o‘rtacha 21 foizdan 24 foizgacha o‘ydi. 1980-yilga kelib paxta yetishtirish 5,8 mln tonnaga yetdi. Shu davrda yerlarning meliorativ holati ham yaxshilanib, 462 ming gektar yer sug‘orishga yaroqli qilindi, 1,5 mln gektar yaylovga suv chiqarildi<sup>69</sup>. 1971–1975-yillarda 4,6 mln gektar sug‘oriladigan yer o‘zlashtirildi, 4,4 mln gektar maydondagi zax qochirildi<sup>70</sup>.

**“O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashning asosiy omillari”** deb nomlangan uchinchi bobda 1950-1970-yillarda respublika agrar sohasida amalga oshirilgan irrigatsiya-melioratsiya, texnik, tashkiliy va iqtisodiy yangilanish jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Respublika iqtisodiyoti va oziq-ovqat ta‘minoti sug‘orma dehqonchilikka asoslangani uchun yerlarni suv bilan ta‘minlash tizimlarini modernizatsiyalash sovet hukumatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida ko‘rilgan. Shu nuqtayi nazardan, o‘rganilayotgan davrda amalga oshirilgan ishlar quyidagi bosqichlarga ajratilishi mumkin: 1950-1953-yillar, 1954-1964-yillar, 1965-1970-yillar. Birinchi bosqich 1950-yilda qabul qilingan “Yangi sug‘orish tizimiga o‘tish to‘g‘risida”gi qaror asos bo‘lib xizmat qildi. Unda yerlarni sug‘orish, tekislash va irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish ishlarini yer tekislovchi va boshqa maxsus mexanizmlar yordamida amalga oshirish nazarda tutildi<sup>71</sup>. Paxtachilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda sug‘oriladigan yerlar hajmi kamida 20–40 gektar va undan ham kattaroq bo‘lishi nazarda tutildi, doimiy sug‘orish va xo‘jaliklararo parallel kanallarni qisqartirish, sug‘orish uchastkalarini rejalashtirish va ichki shoxobchalarni mustahkamlash, kanallarni to‘g‘irlash va suv o‘tkazish quvvatini oshirish, gidrotexnik inshootlarni zamonaviy uskunalalar bilan jihozlash, kollektor-drenaj tarmoqlarini qayta qurish, suv taqsimotini standart shlyuzlar yordamida tashkil etish<sup>72</sup> kabi istiqboldagi rejalar belgilan olindi. Bu bosqichda respublikaning yirik irrigatsiya obyektlari qurilishi boshlandi. Xususan, Tuyamo‘yin, Qayroqqum, Quyimozor, O‘rta-To‘qson va Uchqizil suv omborlarining qurilishi start oldi, Kattaqo‘rg‘on suv ombori esa, yakunlandi. Shuningdek, Eski Anhor kanali (uzunligi 180 km) orqali Zarafshon daryosidan Qashqadaryo havzasiga sekundiga 40 kub metr suv yo‘naltirildi. Farg‘ona vodiysida So‘x daryosidan 200 kub metrlik Sariqo‘rg‘on gidrouzeli, Xorazm oblastida 70 kub metrlik Oktabr kanali gidrouzeli va Qilichboyniyoz gidrouzeli qurib bitkazildi<sup>73</sup>.

Ikkinchi bosqichda (1954–1964) birinchi bosqichdagi tadbirlar takror, qisman takomillashtirilgan ko‘rinishda, yangi siyosiy sharoit va rahbariyat nomidan yana

<sup>68</sup> Ўзбекистон ССР Олий Советининг мажлислари. Бешинчи сессия. 1969 йил 5-6 июнь. Стенографик ҳисобот. – Т.: Ўзбекистон ССР Олий Советининг нашри, 1969. – Б. 64.

<sup>69</sup> КПСС XXV съездининг материаллари. – Т.: Ўзбекистон, 1976. – Б. 308.

<sup>70</sup> 1976–1980 йилларда СССР халқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон, 1976. – Б. 7.

<sup>71</sup> Тургунов М. Ирригация ва экономика. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – Б. 15.

<sup>72</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 2483-fond, 1-ro‘xat, 629-yig‘ma jilld, 164-varaqa.

<sup>73</sup> Мамарасулов С.М. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мелiorациянинг роли / Ўзбекистон колхоз ва совхозлари (Очерклар). I-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б. 73.

qayta tatbiq etildi. Sug'orish tizimlarining texnik holatini yaxshilash, suvdan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish va meliorativ holatini yaxshilash, kanal va suv taqsimlovchi obyektlarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, ortiqcha suv chiqarish nuqtalarini qisqartirish choralari ko'rildi. Modernizatsiya suv qurilishi boshqaruv tizimida amalga oshirildi. 1956-yilda Qishloq xo'jaligi ministrligi tasarrufida "Glavgolodnostepstroy" boshqarmasi tuzildi<sup>74</sup>. 1963-yilga kelib esa, u negizida SSSR Melioratsiya va Suv xo'jaligi ministrligi huzuridagi "Glavsredazirsovxozstroy" bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1958-yilda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti qaroriga muvofiq, oblast va rayon suv xo'jaligi boshqaruv tizimi (obLUOS va rayUOS) nomi bilan yuritildi. Shuningdek, mashina-ekskavator stansiyalari va qurilish-montaj kontoralari oblast sug'orish tizimi bosh boshqarmalari ixtiyoriga o'tkazildi<sup>75</sup>.

Amaliy harakatlar yig'ilgan zaxira suvlar – yomg'irlar, qor va muzlar erishi natijasida hosil bo'lgan manbalardan sug'orish shoxobchalari mavjud, ammo uzoq yillar sug'orilmagan yerlarni ishga tushirish bilan davom etdi<sup>76</sup>. Xonaki sug'orish samaradorligini oshirish uchun egatlar uzaytirildi, suv tarqatish uslublari takomillashtirildi, ishni tashkil qilish darajasi ko'tarildi. Shu bilan birga, qator takror kanallar yo'q qilinib, tizimning foydali ish ko'rsatkichi oshirildi, suv bilan ta'minlash rejimi yaxshilandi, paxta va boshqa ekinlarni tartibli sug'orish imkoniyati yaratildi. 1953–1955-yillarda sug'oriladigan yer maydoni 130 ming gektarga kengaydi, 280 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi<sup>77</sup>. Amudaryo va Sirdaryoda yirik injenerlik to'g'onlari qurildi. Shuningdek, Amudaryo, Chirchiq, Zarafshon, So'x, Isfayram va Shohimardonda suv yerosti mexanizmlari yordamida boshqarila boshlandi. 1957-yil boshiga kelib, O'rta Osiyo respublikalarida gidrotexnika inshootlarining umumiy soni 22 mingga yetdi. Shu davrda sug'orish shoxobchalari uzunligi 86,5 ming km, kollektor-drenaj shoxobchalari uzunligi esa 34 ming km ni tashkil etdi<sup>78</sup>. O'tgan yetti yillikda Toshkent, Chimqo'rg'on, Janubiy Surxon, Karkidon suv omborlari, Janubiy Mirzacho'l, Miyonkol-Xatirchi, Amu-Qorako'l va boshqa yirik kanallar qurildi. Katta Farg'ona kanalining suv o'tkazish quvvati ikki barobarga oshirildi. 1965-yilda esa, respublikadagi eng yirik obyektlardan biri – Amu-Buxoro mashina kanali zamonaviy nasos stansiyalari bilan foydalanishga topshirildi.

1965–1970-yillarni qamrab olgan uchinchi bosqich KPSS Markaziy Komitetining 1965-yil mart va sentabr Plenumlarida qabul qilingan qarorlar orqali mustahkamlandi. Xususan, ittifoq miqyosida 10 yilga (1966–1976) mo'ljallangan melioratsiya dasturi qabul qilindi. Uchinchi bosqichning asosiy vazifasi yangi sug'oriladigan yerlarni kompleks o'zlashtirish, mavjud yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yaylovlarni suv bilan ta'minlash va ekinzorlardagi har bir

<sup>74</sup> Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 856-yig'majild, 123-varaq.

<sup>75</sup> Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1971. – С. 32.

<sup>76</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). В 4-х т. Т.2. 1938–1959 [Сост.: Р.Я.Раджапова, П.Г.Ким, С.А.Дмитриев и др]. – Т.: Узбекистан, 1988. – С. 640.

<sup>77</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и постановлениях съездов. 2-е доп. изд. – Ташкент: Узбекистан. 1968. – С. 536.

<sup>78</sup> Аберкулов Н.А. Ўзбекистонда Совет ҳокимияти йилларида пахтачиликни ривожлантириш тарихидан. – Т.: Ўзбекистон Марказий Комитетининг Бирлашган нашриёти, 1967. – Б. 28.

gektar yer hamda har bir kub metr suvdan samarali foydalanishdan iborat bo'ldi.

1976–1980-yillarda 55 ta yirik asosiy suv to'plash gidrouzullari va sug'orish manbalarida to'g'onlar, mingdan ziyod suv chiqarish inshootlari, 780 ta gidropost qurildi. Shu bilan birga, 1300 km inspektorlik yo'llari rekonstruksiya qilindi va yangidan barpo etildi. Mashina yordamida sug'orish jarayonlarini keng joriy etish munosabati bilan 280 ta nasos stansiyasi ishga tushirildi hamda sug'orish uchun mo'ljallangan 960 ta quduq qazildi. Shu davrda uzunligi 233 km bo'lgan Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbati foydalanishga topshirildi<sup>79</sup>.

Qishloq xo'jaligida mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko'rsatish tizimi 1929-yilda dastlabki mashina-traktor stansiyalari tashkil etilishidan (MTS) to 2024-yilda mashina-traktor parklarining (MTP) to'liq xususiylashtirilishigacha bosib o'tilgan yo'l tarixiy retrospektiv usulda tahlil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 19-apreldagi "Agrar sohada xizmat ko'rsatuvchi, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, unda "O'zagroservis" AJning mulkchilik shakli va boshqaruv tizimida tub o'zgarishlar yasadi. AJ tarkibidagi 89 ta mashina-traktor parki tadbirkorlik subyektlariga sotildi, shunday qilib, agrar sohadagi islohotlar bir asr davomida amal qilib kelgan davlat ishtirokidagi mashina-traktor bazalarining tugatilishi bilan yakun topdi. Bu jarayonlarga zamin 2016-yilda hozirlangan edi. O'shanda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish, sotish va servis xizmatlarini yagona kompleks asosida boshqarish maqsadida "O'zagrotexmash" AJ qaytadan tashkil etildi. "O'zagromashservis" uyushmasi "O'zagroservis" AJ sifatida qayta tuzildi<sup>80</sup>.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 2012-yilda PQ-1758-sonli qaror qabul qilinib, 2012–2016-yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturi ishlab chiqildi. Dasturda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, mashina-traktor parkini yangilashni rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini joriy etish, mavjud ilmiy, konstruktorlik va ishlab chiqarish salohiyatini integratsiyalash orqali yagona tajriba-eksperiment bazasini yaratish belgilandi<sup>81</sup>. Bu dasturga asos bo'lgan ilk chora-tadbirlar 2008–2012-yillarda amalga oshirilgan bo'lib, ular Prezidentning "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-832-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan<sup>82</sup>. Unda muqobil MTPlar faoliyatini takomillashtirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sohasini kengaytirish va sifatini oshirish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, investitsiya majburiyatlarini olish va faoliyat profilini saqlab qolish sharti bilan samarasiz muqobil MTPlarni xususiy mulk sifatida sotish taklifi ham ilgari surilgan.

1996-1997-yillar mustaqil O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga ramziy yillar sifatida muhrlandi. 1997-yilning 21-fevralida mashina-traktor parklarini tashkil

<sup>79</sup> Жўрабеков Х.И. Ўзбекистон сув хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – Б. 7-8.

<sup>80</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. 2016 йил, 11-сон, 371-модда.

<sup>81</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 29-son, 333-modda, 36-son, 412-modda.

<sup>82</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. 2008 й., 4-сон, 227-модда.

etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi nizom tasdiqlandi<sup>83</sup>. 1995-1996-yillarda tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan MTPlar faoliyatini Vazirlar Mahkamasi o'rganib, ularning qishloq xo'jaligida murakkab texnikani jamlab, ko'p mehnat talab qiladigan jarayonlarni samarali mexanizatsiya qilayotganini qayd etdi. Ayniqsa, yer haydash, donli ekinlar sholi va paxtani yig'ishda yuqori natijalarga erishilgani e'tirof etildi<sup>84</sup>.

1985-yil 14-noyabrdagi KPSS va SSSR Ministrlar Soveti qaroriga ("Agrosanoat kompleksi boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida", №144) muvofiq, O'zbekiston qishloq xo'jaligi, Meva-sabzavot xo'jaligi, Go'sht va sut sanoati, Oziq-ovqat sanoati, Qishloq qurilish ministrliklari hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish-texnika ta'minoti qo'mitalari negizida Davlat agrosanoat komiteti tuzildi<sup>85</sup>. Yangi qo'mita tugatilgan vazirlik va idoralar funksiyalarini birlashtirib, qishloq xo'jaligini moddiy-texnik ta'minlashning markazlashgan va murakkab tizimi yaratildi. 1978-yildan bu vazifani bajarib kelgan Goskomselxoztexnikaning vakolatlari ham Davlat agrosanoat kompleksi ixtiyoriga o'tdi. 1978-yil iyul Plenumida L.I.Brejnev ma'muriy buyruqbozlikning salbiy ta'sirini tan olib, sanoat mahsulotlari tannarxining yuqoriligi, kolxoz va sovxozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning qimmatligi, mehnatga haq to'lash masalalari hal etilmagani haqida ochiq gapirdi. Plenumdan so'ng SSSR "Qishloqxo'jaliktexnikasi" boshqarmasi qayta tashkil qilinib, Davlat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish-texnik ta'minot qo'mitasiga aylantirildi<sup>86</sup>.

1961-yil 24-martda O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti qarori (№204) bilan qishloq xo'jaligini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlashning yangi tizimi joriy etildi. Unga muvofiq, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida "O'zselxoztexnika" (O'zqishloqxo'jaliktexnikasi) Davlat qo'mitasi tuzildi. "O'zselxoztexnika" tizimi nafaqat agrotexnik va ta'mirlash ishlarini, balki mineral o'g'it, yoqilg'i-moylash va neft mahsulotlari bilan ta'minlashni ham o'z zimmasiga oldi. Qo'mita va uning mahalliy bo'linmalari birgalikda kolxoz va sovxozlarning texnika, mineral o'g'it va boshqa moddiy-texnik vositalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan shug'ullandi<sup>87</sup>.

O'zbekistonda MTS va RTSlar bir muddat yonma-yon faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti va Ministrlar Sovetining 1958-yil 23-maydagi №346-sonli qaroriga ko'ra, respublikadagi MTSlarning bir qismi tugatilib, ularning asosida 109 ta RTS tashkil etildi. Keyinchalik yana 10 ta RTS qo'shildi. Jami 1212 ta RTS faoliyat boshladi, 25 ta MTS esa, vaqtinchalik

<sup>83</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг, "Ўзқишлоқхўжаликтаъминоттузатиш" Давлат-кооператив қўмитасининг 1997 йил 19 мартдаги "Машина-трактор паркларини ташкил этиш ва уларнинг фаолият кўрсатиши тўғрисидаги"ги 307-сонли Низоми URL: <https://www.lex.uz/ru/docs/767036/> (Murojaat qilindi: 22.12. 2024)

<sup>84</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 19 мартдаги "Машина-трактор паркларининг моддий-техника базасини янада мустаҳкамлаш ва уларнинг хизматларини кенгайтириш чоратадбирлари тўғрисида"ги 150-сонли қарори. URL: <https://www.lex.uz/docs/849571/> (Murojaat qilindi: 22.12. 2024)

<sup>85</sup> Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам: Сб. док. Т. 16. Ч. 1. Май 1985 г. – февраль 1986 г. – М.: Политиздат, 1988. – С. 232.

<sup>86</sup> Чжуан Шици. Аграрная политика и развитие сельского хозяйства СССР в середине 1960-х – середине 1980-х гг.: дисс. ... канд. ист. наук. – Москва, 2019. – С. 268.

<sup>87</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 37-ro'yhat, 1269-yig'majild, 321-varaq.

saqlab qolindi.

1930-yillar oxirida MTS tashkil etish jarayoni jadal sur'atlarda olib borildi. Masalan, manbalarda keltirilishicha, 1935-yilda respublika hukumatining maxsus qarori bilan paxtachilik tarmog'ida 25 ta yangi MTS tashkil etildi<sup>88</sup>. 1937-yilda kelib ularning soni 169 taga, 1940-yilda esa, 189 taga yetdi. MTS tashkil etilishiga asos bo'lgan tarixiy qaror esa, 1929-yil 5-iyunda qabul qilindi. Respublikadagi ilk MTS 1929-yilda Asaka tumanida tashkil etildi<sup>89</sup>. 1930-yilda esa Quva, Kogon, Denov, Yangiyo'l va Bag'dod tumanlarida yana 5 ta MTS ishga tushirildi<sup>90</sup>.

Aholi ehtiyojlarni ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari – yengil sanoat (paxta sanoati, yog'-moy sanoati, to'qimachilik va tikuvchilik sanoati, pillachilik, charm-poyabzal sanoati) hamda oziq-ovqat sanoati (un va un mahsulotlari, shakar, go'sht-sut, konserva, vinochilik va sharbat ishlab chiqarish sanoati) muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston SSRda besh yillik rejaning yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida amalda bajarilgani ko'rsatildi. Biroq rasmiy statistik ma'lumotlar "rejada amalda" qiyosiy shaklda emas, balki umumiy natijalar ko'rinishida e'lon qilingan. Beshinchi besh yillik (1951–1955) yakunida O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari bo'yicha korxonalarining yarmidan ortig'i mehnat unumdorligini oshirish rejasini bajara olmad<sup>91</sup>. Respublika sanoatida yetakchi o'rin tutgan Toshkent oblastidagi 420 korxonaning 83 tasida davlat rejasi bajarilmadi va oblast sanoati yilni 73 million rubl hisobida zarar bilan yakunladi.

Oltinchi besh yillik (1956–1960) esa, Stalin vafotidan so'ng, birinchi marta uning bevosita ishtirokisiz ishlab chiqildi. Umumittifoq miqyosida siyosiy kuchlar o'rtasidagi kurash, sotsializm qurish g'oyalari va sotsial-demokratik tamoyillarni uyg'unlashtirish harakatlari sharoitida yangi besh yillik dastur tayyorlandi. Loyiha ilk bor umumxalq muhokamasiga qo'yildi va minglab taklif hamda mulohazalar yig'ildi. Oltinchi besh yillikda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada oshirilishi belgilandi: kiyim-kechak – 44 foiz, poyabzal – 1,5 barobar, ustki kiyimlar qariyb – 2 barobar, konserva – 1,5 barobar, go'sht – 71 foiz, qandolat mahsulotlari – 62 foiz, sut mahsulotlari esa, 2,4 barobar ko'payishi lozim edi<sup>92</sup>. Biroq 6-besh yillik reja muddatidan oldin bekor qilindi. 1956–1958-yillar natijalari tahlili shundan dalolat berdiki, 13 turdagi mahsulotdan 12 tasida amaliy o'sish 50 foizdan oshmagan. Qandolat mahsulotlari bundan mustasno bo'ldi.

1959-yilda N.S.Xrushchuyov partiya va hukumat rahbarligi ostida amalga oshirilgan iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni yuqori baholar ekan, mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichi – kommunistik jamiyat qurilishi davri

<sup>88</sup> Жураев М. Повышение культурно-технического уровня колхозного крестьянства Узбекистана в период победы и упрочение социализма. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 37.

<sup>89</sup> Ризаев Г. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Т., 1957. – С. 133-134.

<sup>90</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 32-ro'xat, 400-yig'majild, 80-varaq.

<sup>91</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). В 4 т. Т. 2. 1938–1959 / [Сост.: Р.Я.Раджапова, П.Г.Ким, С.А.Дмитриева и др.]. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 620.

<sup>92</sup> Правда Востока. 28 январ, 1956 года.

boshlanganini e'lon qildi<sup>93</sup>. Bu tashabbus asosida “yetti yillik” (1959–1965) xo‘jalik rivojlantirish rejasi joriy etildi. Yetti yil mobaynida O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligiga yo‘naltiriladigan kapital mablag‘lar hajmi 35-36 milliard so‘m etib belgilandi. Bu ko‘rsatkich oldingi yetti yillik davrdagi 14 milliard 900 million so‘mdan 2,4 barobar ko‘p edi. Natijada, 1965-yilga kelib sanoatning yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1958-yilga nisbatan 80 foizga oshishi, sanoat mahsulotining o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati esa, 8,8 foizni tashkil etishi kutilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish vositalarini tayyorlovchi sanoat mahsuloti yiliga o‘rtacha 9 foizga, iste‘mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat mahsuloti esa, 8,5 foizga o‘shishi rejalashtirilgan<sup>94</sup>. Yetti yillik reja yakunida, O‘zbekiston SSR Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tahliliy statistik to‘plamlar taqdim etildi. Unda qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash dinamikasi yillar kesimida tahlil qilinib, barcha tarmoqlarda o‘shish qayd etilgan.

1966-yilda O‘zbekiston SSR Kommunistik Partiyasi syezdi 8-besh yillik (1966–1970) reja loyahasini muhokama qildi. Yengil sanoat tarmoqlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi 1,7 baravar oshirilishi rejalashtirildi, dasturni amalga oshirish uchun 380 mln so‘m kapital mablag‘ yo‘naltirildi. Oziq-ovqat sanoati oldiga esa, quyidagi vazifalar qo‘yildi: ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot turlari va sifatiga e‘tibor qaratish, qadoqlangan mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish<sup>95</sup> va h.k.

Natijada, respublikada uzumchilik va vinochilik tarmog‘i barqaror o‘shishini ko‘rsatdi. 1963-yilda Davlat qayta ishlash qo‘mitasiga qarashli zavodlarda 60,4 ming tonna, 1964-yilda 90,6 ming tonna uzum qayta ishlangan bo‘lsa, 1966-yilga kelib Toshkent oblastining Quyichirchiq rayoni hamda Sirdaryo oblastidagi Xalqobod, Damodin va Olmazor sovxozlarida 14,2 ming tonnadan ziyod uzum yetishtirilib, sanoat usulida qayta ishlandi. 1966-yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi maxsus sovxozlar, konserva va vinochilik sanoati Davlat ishlab chiqarish qo‘mitasi korxonalari umumiy ishlab chiqarish rejasini 104,4 foizga bajardi. Jumladan, iyun oyida ushbu ko‘rsatkich 102,6 foizni tashkil etdi. Bu esa, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish hajmining 25 foizga o‘sganidan dalolat berdi. Vinochilik sanoati korxonalari birinchi yarim yillikda rejani 104,6 foizga bajardi, konserva sanoatida esa, ushbu ko‘rsatkich 102,3 foizni tashkil etdi. Bu davrda mahsulot sifati va turlarini yaxshilash bo‘yicha davlat miqyosida qator chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, “Toshkentvino” kombinati vinoning yangi turdagi “stolovoy” va nimshirin navlarini ishlab chiqara boshladi, Samarqand vino zavodi esa, likyor-sharbat va desert vinolarning bir necha markalarini o‘zlashtirdi. Konserva zavodlari esa, turli sabzavot va poliz mahsulotlaridan yangi turdagi salat va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi<sup>96</sup>.

1971-yil mart plenumida IX besh yillik (1971–1975) rejasi qabul qilindi.

<sup>93</sup> Материалы внеочередного XXI съезда КПСС. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1959. – С. 82.

<sup>94</sup> Правда Востока. 8 январ, 1959 года.

<sup>95</sup> Раимова Н. Ўзбекистонда пахта тозалаш саноатини ривожлантириш. – Т.: Ўзбекистон, 1975. – Б. 10.

<sup>96</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 2670-fond, 1-ro‘xat, 23-yig‘majild, 61-varaq.

Rejaga ko'ra, 1971–1975-yillarda O'zbekiston SSR xalq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha belgilandi: ishlab chiqarish fondi 42,2 foizga (oldingi besh yillikda – 35,8 foiz) o'sishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,3 foizni tashkil etishi; milliy daromad miqdori 42,6 foizga (1966–1970-yillarda 36,7 foiz) ortishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 7,4 foizga yetkazilishi ko'zda tutildi<sup>97</sup>. Mazkur besh yillikda yengil sanoatning asosiy ishlab chiqarish fondlari 2,4 barobarga o'sdi, 28 ta yangi to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal, farfor-fayans va boshqa turdagi korxonalar qurildi yoki rekonstruksiya qilindi. Korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar natijasida ipak matolar ishlab chiqarish hajmi ikki barobarga, tashqi trikotaj mahsulotlari 2,3 barobarga, tikuvchilik mahsulotlari 64 foizga, charm poyabzal ishlab chiqarish 1,5 barobarga, farfor-fayans mahsulotlari ishlab chiqarish esa, 3,5 barobarga ko'paydi<sup>98</sup>.

O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash sohasida yetti yillik, sakkizinchi va to'qqizinchi besh yilliklarda ma'lum ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

**“O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi yangi tendensiyalar”** nomli to'rtinchi bobda paxta monopoliyasining shakllanishi, uni amalga oshirishning strategik yo'nalishlari hamda bu siyosatning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, shu bilan birga, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish jarayonlari, ya'ni mineral o'g'itlar, pestitsidlar va agrokimyoviy vositalardan foydalanish, qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirishdagi muammolar – yerdan samarasiz foydalanish, texnik va resurs taqchilligi, ekologik ta'sirlar tahlil etilgan.

Sovet davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan paxta siyosati tarixi turli baholarga sabab bo'lgan. Mustaqillikdan oldin paxta siyosatining ijobiy jihatlari ta'kidlansa, keyin “paxta monopoliyasi” va “yakkahokimligi” kabi tanqidiy yondashuvlar yuzaga keldi. Mavzu atrofidagi munozaralar hali ham davom etadi, ayniqsa, Sh.Rashidov tashabbuslari qayta baholanishi zarur. Tadqiqotda, 1946-1963 illarda qabul qilingan 10 ta asosiy hujjat (plenum qarorlari) kontent-tahlil usuli bilan o'rganildi. Natijada, paxtachilikni rivojlantirishning 7 ta asosiy yo'nalishi aniqlandi: qo'riq va yangi yerlarni o'zlashtirish (kalit so'z: “yangi yer”), paxtachilikni mexanizatsiyalash (kalit so'z: “mexanizatsiya”), ilg'or agrotexnik tadbirlarni joriy etish (kalit so'z: “agrotexnik”), qishloq xo'jaligi texnikalariga servis xizmat ko'rsatish (kalit so'z: “texnika”), suv qurilishi (kalit so'z: “irrigatsiya”), ilmiy tadqiqot va tajribalarni ommalashtirish (kalit so'z: “ilmiy”), qishloq xo'jaligini kimyolashtirish (kalit so'z: “o'g'itlar”).

Umumiy hisobda barcha hujjatlarda ushbu yo'nalishlar 270 marta tilga olingan. Yetakchi ikkita yo'nalish: “Qo'riq va yangi yerlarni o'zlashtirish” (78 marta / 28,9 foiz) va “Paxtachilikni mexanizatsiyalash” (61 marta / 22,8 foiz) bo'lib, ular jami 52 foizni tashkil etdi. Qolgan yo'nalishlar: ilmiy tadqiqot (31 / 11,5 foiz), suv qurilishi (30 / 11,1 foiz), texnikaga servis xizmati ko'rsatish (25 / 9,3 foiz), agrotexnika (24 / 8,9 foiz) va mineral o'g'itlar (21 / 7,8 foiz).

<sup>97</sup> Зиядуллаев С.К. Важнейшие проблемы развития экономики Узбекистана в новой пятилетке. // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1971. – №6. – Б. 17.

<sup>98</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 41-ro'yxat, 2569-yig'majild, 96-varaq.

Yo'nalishlarning dinamikasi: 1946-yil: texnikaga servis xizmati ko'rsatish (37,9 foiz) yetakchilik qildi; 1948-yil: o'g'itlardan foydalanish (37,5 foiz) birinchi o'rinda; 1950-yil: mexanizatsiyalash (41,1 foiz) ustuvor bo'ldi; 1954-yil: agrotexnik tadbirlar (26,9%) kun tartibiga chiqdi; 1956-yil: yerlarni o'zlashtirish (70,7 foiz) asosiy vazifaga aylandi; 1963-yil: suv qurilishi (29,4 foiz) va mexanizatsiya (26,4 foiz) dominant yo'nalishlar bo'ldi.

Natijalar paxtachilik siyosatining turli bosqichlarda o'zgarib turganini, doimiy ravishda bitta o'zgarimas strategiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Ayni paytda, ba'zi tadqiqotchilarning "Mexanizatsiya bosh yo'nalish bo'lgan" yoki "paxta narxi hal qiluvchi rol o'ynagan" degan da'volari tahlil natijalari bilan to'liq mos kelmaydi. Hatto mexanizatsiya keng joriy etilgan davrlarda ham paxta terishda mehnat mobilizatsiyasi (maktab o'quvchilari, xodimlar) davom etgani, amaliyotda bu siyosatning noaniqligi va qiyinliklarini ko'rsatadi.

O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini kimyolashtirish jarayoni 1930-yillarda paxtachilikdan boshlangan. Dastlabki tajribalar ijobiy natija berdi: 1932-yilda har gektarga 0,29 sentner o'g'it solish paxta hosildorligini gektariga 8 sentnerdan 17,1 sentnergacha oshirdi.

Kimyolashtirish tendensiyasiga N.S.Xrushchyov taklif etgan "yashil inqilob" dasturi muhim turtki berdi. Istiqbolda O'zbekiston SSRda tuproqni sun'iy tarzda strukturali qilish, gumin moddalar ishlab chiqarish, shuningdek, azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar hajmini 2-3 baravarga oshirish rejalashtirildi. 1957-yilda Markaziy o'g'it stansiyasi, Agrotuproqshunoslik jamiyati va Yangiyo'l MTS agrokimyo laboratoriyasi hamkorligida o'tkazilgan tajribalarda suyuq azotli o'g'itlarni erta oziqlantirish usuli samaradorligi aniqlandi. Paxta yetishtirishda oziqlantirish muddati 2-4 haqiqiy barg fazasidan ekisholdi davriga ko'chirilishi natijasida gektariga 2,0-2,5 sentner hosil oshishi va hosilning yetilish muddati tezlashishi kuzatildi<sup>99</sup>.

Mineral o'g'itlarning iqtisodiy samaradorligi raqamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, 1968-yilda O'zbekiston paxta maydonlari 2,6 million tonna mineral o'g'it bilan ta'minlandi va, natijada, paxta hosili 2 million tonnadan ortiq ko'paydi. Agar mineral o'g'it qo'llanilmaganida, shuncha miqdorda paxta olish uchun taxminan 1,5-1,6 ming gektar yangi yer o'zlashtirish va 5-6 milliard so'm sarf qilish talab etilardi. Holbuki, 3 million tonna mineral o'g'it ishlab chiqarish uchun 300 million so'm yetarli bo'ldi<sup>100</sup>. Shu bilan birga, mineral o'g'itlarga qilingan har 100 so'mlik sarf-xarajat 1963-yilda 872,5 so'mlik qo'shimcha mahsulot qiymatini bergan bo'lsa, 1970-yilda bu ko'rsatkich 958 so'mga yetdi. Demak, sarflangan mablag' 9-10 barobar iqtisodiy qaytim bilan o'zini to'la oqladi<sup>101</sup>. Zero, o'simliklarni himoya qilishga sarflangan har bir so'mlik vosita 10-11 so'mlik hosilni saqlab qolish imkonini berdi. Ayrim preparatlarning ta'siri aniq raqamlarda namoyon bo'ldi: masalan, merkaptofosning 30 foizli

<sup>99</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 90-fond, 10-ro'yxat, 4748-yig'majild, 56-varaq.

<sup>100</sup> Хасанжонов К., Давий К. Пахтачиликни химиялаштиришнинг баъзи масалаларига доир. // Ўзбекистон Коммунисти. – Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитети нашриёти, 1970. – №9. – Б. 25.

<sup>101</sup> Шутлов Д.Г. Экономическая эффективность применения удобрений в хлопководстве. – Ташкент, 1972. – С. 7.

konsentratining bir tonnasi 140 tonna paxtani zarardan asrab qoldi. Begona o‘tlarga qarshi kimyoviy preparatlar qo‘llanilishi esa, qo‘l mehnati sarfini 20 baravargacha qisqartirdi<sup>102</sup>.

O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1956–1960-yillarda o‘g‘itlarni chetdan olib kelish uchun 75 million so‘m sarf qilingan. Bu esa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxiga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Mavjud holat sovet hukumatini respublikada kimyo sanoatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga majbur qildi. Shu asosda, Farg‘ona vodiysi neft konlari negizida azot ishlab chiqarish kombinati qurildi, Chirchiq elektrokimyo kombinati hamda Samarqand superfosfat zavodlari rekonstruksiya qilindi. Chirchiq kombinatini tabiiy gaz asosida ishlatish quvvatlaridan samarali foydalanish imkonini berdi: yiliga 14 ming tonna atsetilsellyuloza olish imkoniyatiga ega sirka kislotasi, shuningdek, polixlorvinil smolalari, xlor, kaustik soda va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu bilan birga, azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarish quvvati yiliga 1 million tonnaga yetkazildi, murakkab o‘g‘itlar tayyorlash jarayoni yo‘lga qo‘yildi<sup>103</sup>. 1970-yilga kelib Chirchiq kombinati azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarish quvvati 1963-yilga nisbatan 56 foizga oshirildi. 1964-yilda esa, Farg‘ona azotli o‘g‘itlar zavodida ammiak va magniy xloridi ishlab chiqarish sexlari ishga tushirildi, Navoiy kimyo kombinatida esa, ammiak ishlab chiqarish bo‘yicha yangi sexlar foydalanishga topshirildi<sup>104</sup>. Bu tadbirlar respublikada karbamid, ammofos, superfosfat, ammiak selitrasi va boshqa murakkab o‘g‘itlar bilan ta’minlash<sup>105</sup> imkonini yaratdi.

1964-yilda mineral o‘g‘itlar yetkazib berish hajmi 2 mln 251 ming tonnani tashkil etib, yetti yillik mobaynida 35 foizdan ortiq o‘shish kuzatildi. 1966–1970-yillarda har gektar paxta maydoniga o‘rtacha 210 kg azot, 105 kg fosfor va 24 kg kaliy kiritilib, o‘rtacha hosildorlik gektariga 24,9 sentnerni tashkil etdi. 1971–1975-yillarda esa, mos ravishda 216, 129 va 38 kg gacha ko‘tarilishi natijasida o‘rtacha hosildorlik gektariga 28,5 sentnerga yetdi. 1976-yilda esa, eng yuqori ko‘rsatkich – gektariga 30 sentner hosil olishga erishildi. Bu azot o‘g‘iti 222 kg, fosfor 139 kg va kaliy 50 kg gacha oshirilgani bilan bog‘liq edi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, respublika bo‘yicha har bir kilogramm azot o‘g‘iti hisobiga o‘rtacha 13,5 kg chigitli paxta olingan, Andijon, Toshkent va Samarqand oblastlarida esa, bu ko‘rsatkich 14,9 kg ni tashkil etgan<sup>106</sup>.

Qishloq xo‘jaligida mineral o‘g‘itlar va pestitsidlardan ommaviy foydalanish jarayoni ijobiy natijalar bilan bir qatorda qator muammolarni ham keltirib chiqardi. Ular qatoriga o‘g‘itlarni tashish, saqlash va qo‘llash jarayonlarini nazorat qilish, me’yor va texnik xavfsizlikka rioya etish, aholi salomatligini muhofaza qilish,

<sup>102</sup> Алиев Ё., Базилёв Н. Ўзбекистонда химия саноатини ривожлантириш истиқболлари тўғрисида. // Ўзбекистон Коммунисти. – Т.: Ўзбекистон КП Марказий Комитети ҳузуридаги “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистон Сурх” бирлашган нашриёти, 1960. №7. – Б. 533.

<sup>103</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). В 4 т. Т. 2. 1938–1959 / [Сост.: Р.Я.Ражапова, П.Г.Ким, С.А.Дмитриева и др.]. – Ташкент: Узбекистан. – С. 826.

<sup>104</sup> Гельбух С.Я. Ўрта Осиё – улкан химия райони. –Т.: Уздавнашр, 1963. – Б. 7-8.

<sup>105</sup> Гельбух С.Я. Ўрта Осиё – улкан химия райони. –Т.: Уздавнашр, 1963. – Б. 19.

<sup>106</sup> Мавлянов А. Агрехимическая служба Узбекистана. // Сельское хозяйство Узбекистана. – Ташкент: ЦК КП Узбекистана. – №2. – С. 34.

atrof-muhitga yetkazilgan zararni bartaraf etish kabi masalalar kirardi. 1970-yillarga kelib ommaviy kimyolashtirishning salbiy oqibatlari yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bu holat mustaqillik yillarida o'tkazilgan tadqiqotlarda<sup>107</sup> chuqur tahlil qilindi, hatto bir disseratsiya butunligicha qishloq xo'jaligini kimyolashtirish va uning oqibatlariga bag'ishlandi<sup>108</sup>.

Kimyolashtirish jarayonlari mahsuldorlikni vaqtincha oshirgan bo'lsa-da, uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargan. 1972-yilda O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash ministrligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarida pestitsid qoldiqlari, ayniqsa, DDT miqdori ruxsat etilgan me'yordan ortiq bo'lgan. Xususan, Qoraqalpog'istonda sut namunalari kilogrammiga 0,1-0,49 mg miqdorda DDT aniqlangan, holbuki me'yoriy chegara kilogrammiga 0,05 mg etib belgilangan. Toshkentda tekshirilgan sut namunalari 9,4 foiz, sariyog'da 13,1 foiz va yog'da 42,4 foiz DDT qoldiqlari topilgan. Shuningdek, Andijon parrandachilik xo'jaliklarida tuxum va tovuq go'shtida DDT hamda DDE miqdori yuqori bo'lgan, Toshkent go'sht kombinati mahsulotlarida esa, kilogrammiga 4,1 mg ko'rsatkichgacha yetib borgan. Bunday holatlarda aholi ichimlik suvi sifatida, asosan, ochiq suv havzalari va quduqlardan foydalangani ekologik xavfni yanada kuchaytirgan. DDT ta'sirida ayollarda homiladorlik patologiyasi, muddatidan ilgari tug'ilish va homila rivojlanishida nuqsonlar ko'paygan<sup>109</sup>.

Sovet davrida O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi yuqori darajada markazlashgan va qat'iy reja asosida tashkil etilgan tizimda faoliyat yuritdi. Bunday tizimning asosiy kamchiligi – ijobiy natijalar sun'iy ravishda ortiqcha bo'rttirilib ko'rsatilishi, mavjud xato va salbiy holatlar esa yashirilishida edi.

Birinchidan, boshqaruvning haddan tashqari markazlashuvi va byurokratik xarakteri samaradorlikka sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchidan, partiya organlarining ortiqcha aralashuvi va vakolat chegarasining aniq belgilanmaganligi mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirdi.

Uchinchidan, malakali rahbar va mutaxassislarining yetishmasligi jiddiy oqibatlarga olib keldi.

Totalitar boshqaruv tizimi sharoitida O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi va Tayyorlov ministrligi zamon talablaridan ancha orqada edi. Kolxoz, sovxoz va MTSlardagi o'zgarishlar yetarli hisobga olinmadi. Bu ministrlikning ichki tuzilishi ham murakkab va byurokratik bo'lib, bir-birini takrorlovchi va samarasiz ishlaydigan boshqarmalardan iborat edi. Muammolar nafaqat O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi va tayyorlov ministrligida, balki respublika hukumati – O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Byurosi faoliyatida ham kuzatilgan bo'lib, ular

<sup>107</sup> Абдуллаев А.Н. Ўзбекистонда пахта яккахокимлиги ва унинг оқибатлари (1917–1991 йй.): тар. фанл. докт. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 309 б., Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизимлари ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951–1991 йй.): тар. фанл. докт. ... дисс. – Андижон, 2017. – 324 б., Обламурадов Н.Х. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1917–1990 гг.: опыт, уроки и проблемы: дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1993. – 332 с.

<sup>108</sup> Пардаев Т. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини кимёлаш (60-йиллар): аҳоли ва муаммолари: тар. фан. ном. ... дисс. – Термиз, 1998. – 152 б.

<sup>109</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 41-ro'xat, 2504-yig'majild, 41-varaq.

davlat boshqaruvi samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 1955-yil 3-martda bo'lib o'tgan majlisda jami 14 masala ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning 8 tasi qishloq xo'jaligiga oid edi. Bunday holat rahbar kadrlarning diqqatini asosiy strategik yo'nalishlardan chalg'itgan. Shuningdek, 1955-yilning birinchi choragi uchun qabul qilingan qaror va ish rejasi keyinchalik keskin o'zgartirilgan. Rejalarning doimiy ravishda o'zgartirilib turilishi byurokratik boshqaruvning yaqqol ifodasi edi. Bu holat masalalarni oldindan puxta tayyorlashga sarflangan vaqtning samarasiz ketishiga olib keldi. Ayrim hollarda ish rejasiga kiritilgan o'zgarishlar haqidagi ma'lumot Byuro majlisi arafasidagina yetib kelgan va bu, o'z navbatida, ko'rib chiqiladigan masalalarning yetarlicha tayyorlanishiga to'sqinlik qilgan hamda qaror qabul qilish jarayonining sifatini pasaytirgan<sup>110</sup>.

Direktiv boshqaruv mahalliy tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olmasdan amalga oshirildi: rejalar ortiqcha yuqori belgilandi, tuproq xususiyatlari e'tiborsiz qoldirildi, ekin turlari esa yuqoridan belgilab berildi. 1953-yildan 1959-yilga qadar Samarqand oblasti go'sht yetishtirish rejasini 2 barobar oshirib bajargan. 1953-yilda davlatga 11 000 tonna go'sht bergan bo'lsa, 1958-yilda 23 000 tonna topshirgan. Bu 2 barobardan ham ortiq. 1959-yil uchun esa 25 600 tonna reja qilindi. Shunda, ijroiya qo'mita raisi: "Bizda kolxoz va sovxozlar kesimida aniq hisob-kitoblar bor. Shu sabab, 1959-yil uchun 25 600 tonna o'rniga 21 500 tonna reja qo'ysangiz" deb reja oshirilishiga e'tiroz bildirdi<sup>111</sup>.

50-yillarda hukumat tomonidan yuz minglab qishloq xo'jaligi mutaxassislari tayyorlangan bo'lsa-da, ulardan kam sonli rahbar lavozimlariga jalb etildi. Masalan, respublikadagi kolxoz raislarining 10 foizi, tuman partiya qo'mitalari kotiblarining esa, atigi 6 foizi maxsus qishloq xo'jaligi ma'lumotiga ega edi. 1954-yil dekabr holatiga ko'ra, 333 nafar kolxoz raisi savodsiz, 697 nafari esa faqat boshlang'ich ma'lumotli bo'lgan<sup>112</sup>. Bu esa, qishloq xo'jaligini samarali boshqarish imkoniyatini keskin pasaytirdi.

Asta-sekinlik bilan ma'muriy-boshqaruv apparatida ortiqcha tuzilmalar shakllana boshladi. Brigadirlar, ferma mudirlari, hisobchilar va boshqa lavozimlarning ko'pligi boshqaruv tizimini byurokratlashtirib yubordi. Bu jarayon rahbarlar orasida korrupsiya holatlari va talon-torojliklarning keng yoyilishiga zamin yaratdi.

Moddiy-texnik ta'minot sohasida korrupsiya holatlari ham keng tarqaldi. Qashqadaryo oblasti "O'zglavselsnab" boshqarmasi rahbari respublika rahbariyati ruxsati bilan Beshkent tumani Lenin nomli kolxozi orqali ministrlk uchun yengil "Zim" avtomashinasi sotib olgan va uning qiymati 40 ming rubl bo'lib, ombor va baza qurilishi uchun mo'ljallangan mablag'dan qoplangan. Xorazm oblastida esa, mahalliy boshqarma rahbari qishloq xo'jaligi boshqarmasiga "Volga" avtomashinasini noqonuniy ravishda sotib olishda yordam bergan, ammo hech qanday javobgarlikka tortilmagan<sup>113</sup>. Davlat mulki sharoitida xo'jalik rahbarlari

<sup>110</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 90-fond, 9-ro'yxat, 1842-yig'majild, 83-varaq.

<sup>111</sup> Ўзбекистон ССР бошқаруви тарихи (XX асрнинг 50-йиллари). – Тошкент: Фан, 2023. – Б. 43.

<sup>112</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1986). В 4 т. Т. 2. 1938–1959 / [Сост.: Р.Я.Ражапова, П.Г.Ким, С.А.Дмитриева и др.]. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 619.

<sup>113</sup> O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 38-ro'yxat, 1189-yig'majild, 25-varaq.

tomonidan kolxoz mulkini talon-toroj qilish holatlari ham keng tarqaldi. Jumladan, ko‘plab kolxozlar tegishli fond va naryadsiz SSSRning o‘rmon sanoati hududlariga yog‘och sotib olish uchun vakillar yuborgan. Faqat Xorazm oblastining 41 kolxozi bu maqsadda 946 ming so‘m sarflagan. Ba’zida mablag‘ sarflangan bo‘lsa-da, yog‘och umuman olinmagan. Oqqo‘rg‘on tumanidagi Oxunboboyev kolxoziga 132 ming so‘m pul ajratilgan, ammo shundan, 90 ming so‘mga hech qanday yog‘och keltirilmagan<sup>114</sup>.

Mehnatni tashkil etishdagi tizimi Artel nizomiga ko‘ra mehnat munosabatlari har bir xo‘jalik a‘zosining shaxsiy mehnati orqali umumiy taraqqiyotga qo‘shgan hissasiga asoslangan. Artel umumiy yig‘ilishi ish me‘yorlari va mehnat kunlari tariflarini belgilar, ular har xil ish turlari va mahsulot birliklari hisobida baholanardi<sup>115</sup>. Kolxozlarda normalarning noto‘g‘ri belgilashi va teng taqsimot amaliyoti mehnat unumdorligini yanada pasaytirdi. Ilg‘or ishchilarning manfaatlari e‘tiborsiz qolib, sust ishlaganlar ham ular bilan teng haq olishda davom etdilar. “Kolxozsentri” ma‘lumotlariga ko‘ra, respublikadagi kolxozlarning taxminan 30 foizida mehnat hisobi umuman yuritilmagan, qolganlarida esa u formal xarakterga ega bo‘lgan. Hatto, hisob to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan xo‘jaliklarda ham unumdorlik ko‘rsatkichlari pastligicha qolgan<sup>116</sup>.

Majburiy mehnat sharoiti kolxozchilarning mehnatga munosabatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, ular ishga qiziqish bildirmas, imkoni boricha ishga kech kelish yoki ishdan qochishga urinardi. Mehnat jarayoni brigadir buyrug‘i bilan boshlanib, uning doimiy nazorati ostida amalga oshirilgan. Bunday sharoitda passiv qarshilik shakllari – davlat mulkini yashirincha talon-toroj qilish, buyruqlarni bajarmaslik uchun nayranglar qo‘llash kabi holatlar keng tarqalgan<sup>117</sup>. Kolxozlarda qo‘shimcha haq va avans to‘lash tartibidan foydalanib, mablag‘larni noqonuniy o‘zlashtirish holatlari ham kuzatildi. Andijon oblastida ma‘muriy xodimlar nomiga rasmiylashtirilgan ortiqcha avanslar orqali 7 514 so‘m pul va 2 550 sentner g‘alla o‘zlashtirilgan. Ayniqsa, Ayim rayonidagi Kaganovich kolxozining 42 nafar rahbari 256,3 ming so‘m ortiqcha avansni shaxsiy manfaat yo‘lida o‘zlashtirgan, shu jumladan, kolxoz kassiri Butayevning ulushi 12,500 so‘mni tashkil etgan. Navoiy rayonidagi Sverdlov kolxozi raisi Parmonov esa, 1959-yilda asosiy ish haqidan tashqari 17 ming so‘m qo‘shimcha haq olib, raisning yillik ish haqqi 90 ming so‘mga yetgan. Denov tumanidagi Xrushchiov kolxozi rahbariyati ham 170 ming so‘mdan<sup>118</sup> ortiq mablag‘ni o‘zlariga qo‘shimcha haq sifatida yozib olgan.

## XULOSA

<sup>114</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 38-ro‘yxat, 936-yig‘majild, 52-varaq.

<sup>115</sup> (СЗ СССР 1930 г. №24, ст. 255) Примерный устав ... URL: <https://istmat.org/node/49649> (Murojaat qilindi: 18.08.2025)

<sup>116</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 197-fond, 4-ro‘yxat, 97-yig‘majild, 35-varaq.

<sup>117</sup> Фицпатрик Ш. Сталинские крестьяне: Социальная история Советской России в 30-е годы: деревня. / Пер. с англ. – М.: “Российская политическая энциклопедия” (РОССПЭН), 2001. – С. 148.

<sup>118</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 38-ro‘yxat, 992-yig‘majild, 74-varaq.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining sovet davridagi rivojlanishi va modernizatsiyasidan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. SSSRda yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimining shakllanishi, asosan, iqtisodiy samaradorlik yoki dehqonlar turmush sharoitini yaxshilash maqsadida emas, balki markaziy rejalashtirish sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markazlashtirilgan holda tarqsimlash tizimidagi qiyinchiliklarni yengish vositasi sifatida yaratilgan. Natijada, bu tizim qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish vositasidan ko'ra ekspluatatsiya qilish mexanizmi sifatida namoyon bo'ldi.

2. N.S.Xrushchuyov tomonidan o'z hokimiyatini mustahkamlash jarayonida e'lon qilingan radikal islohotlar subyektivizm va avanturyizm xususiyatlari bilan ajralib turdi. 1956–1961-yillarda amalga oshirilgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni cheklash, kolxozlarni yiriklashtirish, MTSlarni qayta qurish va boshqaruvni “takomillashtirish” kabi choralar ilgarigi islohotlarning ijobiy natijalarini de-fakto bekor qilib, sohani yanada chuqur inqiroz holatiga solib qo'ydi.

3. 1954–1964-yillarda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan siyosat ikki tomonlama xarakterga ega bo'ldi. Birinchi tomondan, paxtachilik sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi: hosildorlik va ishlab chiqarish hajmi oshdi, davlat xaridlari ko'paydi, mexanizatsiya, melioratsiya va ilmiy usullarni joriy etish bo'yicha ayrim ijobiy natijalarga erishildi. Ikkinchi tomondan, iqtisodiy siyosatning nomutanosibligi, direktivligi va mahalliy sharoitlar hisobga olinmaganligi sababli chorvachilik, kartoshka va sabzavotchilik kabi iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish e'tiborsizlikka uchrab, inqiroz holatida qoldi. G'oyaviy jihatdan mantiqli ko'ringan hukumat qarorlari amaliyotda samarasiz bo'lib chiqdi, ayrim choralar esa, avvalgi islohotlar natijalarini butunlay bekor qildi.

4. Respublika markaz tomonidan belgilangan reja talablarini bajarish uchun qattiq ma'muriy bosim ostida bo'ldi. Natijada, amaliyotda texnika va mablag'lar yetarli bo'lmaganligi, loyihalarning kechiktirilishi, meliorativ muammolar va sho'rlanish kabi iqtisodiy-ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bilan birga, traktor-dalachilik brigadalari, yangi boshqaruv tizimlari kabi ijobiy tajribalar ham mavjud bo'lib, ular mehnat unumdorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Natijada, O'zbekiston SSR SSSRdagi asosiy paxta ishlab chiqaruvchi hududga aylandi, ammo bu yutuqlarga nisbatan yuqori xarajatlar va keyingi yillardagi ekologik tahdidlar fonida erishildi.

5. Kosigin islohotlari O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida qisqa muddatda ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishishga imkon berdi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishi, texnik ta'minotning yaxshilanishi, aholi turmush darajasining oshishi islohotlarning ijobiy ta'siridan dalolat berdi. Shu bilan birga, islohotlar tizimning ichki cheklovlari, byurokratik to'siqlar, siyosiy qarshilik va ekologik muammolar sababli bardavom bo'la olmadi. O'zbekiston SSR iqtisodiyotida Kosigin islohotlari moddiy manfaatdorlik va iqtisodiy stimullarning ahamiyatini amalda ko'rsatib, keyingi iqtisodiy islohotlar uchun nazariy va amaliy asos yaratib berdi.

6. 1950–1970-yillar davomida amalga oshirilgan sugʻorish tizimlarini modernizatsiyalash siyosati uch bosqichda amalga oshirildi. Natijada, nafaqat yangi yerlar juda keng koʻlamda oʻzlashtirildi va yirik gidrotexnik inshootlar qurildi, balki suv xoʻjaligini boshqarishning ilgʻor usullari joriy etilib, suvdan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va telemexanizatsiyalashtirish kabi ilgʻor yondashuvlarning joriy etilishi, shuningdek, tashkilot va boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlarni sugʻorish tizimlarining rivojlanishiga kuchli turtki boʻldi.

7. Sovet davridagi agrar siyosat, shu jumladan, paxtachilikka oid siyosat qisqa muddatli yuqori natijalarga erishish uchun ekstensiv va intensiv usullarni oʻzaro uygʻunlashtirishga intilgan boʻlsa-da, kelajakdagi ekologik (havo, suv, yerosti suvlari sathining pasayishi va shoʻrlanish) va iqtisodiy oqibatlarni toʻliq hisobga olmagan. Kimyoviy moddalarning haddan tashqari qoʻllanilishi vaqtincha mahsuldorlikni oshirgan boʻlsa-da, uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

8. SSSR parchalanishiga olib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy omillardan biri sifatida, qishloq xoʻjaligidagi inqiroz jarayonlari, keng isteʼmol mollariga boʻlgan talabning toʻliq qondirilmaganligi va iqtisodiy turgʻunlik alohida oʻringa ega. Sovet davri tajribasi qisqa muddatli iqtisodiy samara va uzoq muddatli ekologik xavf-xatarlar oʻrtasidagi ziddiyatni yaqqol koʻrsatib berdi. Bu esa, hozirgi zamon agrar siyosati uchun muhim saboq hisoblanadi.

9. Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligi mexanizatsiyasi va servis xizmatlari tizimi tarixiy tarzda markazlashgan boshqaruvdan, bozor munosabatlari va xususiy tadbirkorlik asosidagi mustaqil boshqaruvga oʻtish bosqichlarini bosib oʻtdi. Har bir bosqich oʻzining ijobiy va salbiy jihatlariga ega boʻldi. 2024-yilda amalga oshirilgan MTPlarni toʻliq xususiyashtirish chorasi oldingi yillardagi islohotlarning mantiqiy davomi boʻldi. Ammo, natijada, vakolatlar noaniqligi, xizmat narxlarini nazorat qilish kabi yangi muammolar yuzaga keldi, ularni hal etish tizimning isteʼmolchi uchun samaradorligi va barqarorligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

10. Oʻzbekiston SSR qishloq xoʻjaligi boshqaruv tizimining haddan tashqari markazlashganligi, partiya organi aralashuvining kuchli boʻlgani, mahalliy sharoitlar yetarlicha hisobga olinmagani aniqlandi. Bu esa, qaror qabul qilish jarayonida formalizm va byurokратиyani kuchaytirdi. Malakali kadrlar yetishmasligi, resurslar taqsimotida adolatsizlik va korrupsiyaning mavjudligi qishloq xoʻjaligining samaradorligi hamda barqaror rivojlanishini chekladi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish jarayonini tadqiq etishda iqtisodiy, siyosiy, texnologik va ijtimoiy omillarning oʻzaro taʼsirini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish tavsiya etiladi.

2. Sovet davrida amalga oshirilgan modernizatsiya siyosatining ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda qayta baholash, bugungi agrar siyosat yuzasidan muhim tarixiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish tajribasi zamonaviy “yashil iqtisodiyot” va barqaror rivojlanish konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil etilishi kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

4. Tadqiqotda ilgari surilgan xulosalarni O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirishda, ayniqsa, agrar soha islohotlarda amaliy qo‘llash maqsadga muvofiq.

5. 1950–1970-yillardagi modernizatsiya siyosati tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston agrosanoat sohasida davlat boshqaruvi va mahalliy tashabbuslar o‘rtasidagi mutanosiblikni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

6. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, irrigatsiya va kimyolashtirish jarayonlariga oid tarixiy tajribadan, amalda agroklastlar faoliyatini yanada takomillashtirishda ilmiy asos sifatida foydalanish mumkin.

7. Modernizatsiya siyosatining ijtimoiy ta‘sirini hisobga olgan holda, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va yangi ish o‘rinlari yaratish maqsadida inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirish dasturlariga tarixiy saboqlar asosida ilova kiritish tavsiya etiladi.

8. Tadqiqot natijalari o‘quv jarayoniga joriy etilishi mumkin: “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash tarixi” maxsus fan sifatida agrar universitetlar va boshqa shu bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida yoki magistratura mutaxassisliklari tayyorlaydigan OTMda o‘qitishda foydalanish samarali bo‘ladi.

9. Dissertatsiyada asoslangan xulosalar, ilmiy natijalar qonunchilik tashabbuslari va ilmiy-amaliy forumlar uchun ilmiy asos sifatida, jumladan, “Qishloq xo‘jaligi kooperativlari to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini takomillashtirishda tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**РИЗАЕВ БАХТИЁР НАЗАРБОВЕВИЧ**

**ИСТОРИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА  
УЗБЕКИСТАНА (1950–1970-е ГОДЫ)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

**Бухара – 2026**

Тема диссертации доктора наук (DSc) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № B2023.4.DSc/Tar35

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Научный консультант:** **Хайтов Шадман Ахмадович,**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Турсунов Равшан Нормуродович,**  
доктор исторических наук(DSc), профессор

**Обломуродов Наим Халимович,**  
доктор исторических наук, профессор

**Шерипов Умарбек Атажанович**  
доктор исторических наук(DSc), доцент

**Ведущая организация:** **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 при Бухарском государственном университете (Адрес: 230100, город Бухара, улица М. Икбол, 11, 110-аудитория.) Тел.: (0365) 221-29-14; факс: (365) 221-27-07; E-mail.: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz).)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университет (зарегистрировано под номером \_\_\_\_).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2026 года.

(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2026 года.)

  
**А.Т. Очиллов**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

  
**И.А. Богатов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии историческим наукам (PhD), доцент

  
**К.Р. Рахимов**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** К концу XX – началу XXI века в мировом масштабе значительно активизировалась политика модернизации сельского хозяйства. В частности, опыт внедрения технологий модернизации-механизации, ирригации-мелиорации, химизации и семеноводства, проведенный в Мексике, Индии и ряде стран Азии, вносит коренные изменения в сельском хозяйстве. Эти процессы приобретают решающее значение глобальных проблем, связанных с обеспечением продовольственной безопасности, увеличением производства сельскохозяйственной продукции в условиях, когда население растет. Даже сегодня глобальные проблемы - продовольственная безопасность, эффективное использование земельных и водных ресурсов, изменение климата - побуждают эффективно использовать методы модернизации сельского хозяйства.

В мировом масштабе вопросы модернизации сельского хозяйства регулярно находятся в центре внимания ведущих научно-исследовательских центров и международных организаций. В частности, проводятся многочисленные научные исследования в области устойчивого обеспечения населения продуктами питания, “зеленой революции”, финансирования инноваций, агроэкологии, стратегий развития сельского хозяйства, управления природными ресурсами, аграрной политики, устойчивого развития, селекции и повышения урожайности, модернизации сельского хозяйства в засушливых районах. Результаты этих научных исследований служат важным инструментом для глубокого понимания процессов модернизации сельского хозяйства и решения современных глобальных проблем. Поэтому изучение процессов аграрной политики, управления, реформ, новых тенденций, инноваций, модернизации, осуществленных в Узбекистане в 1950-1970-е годы прошлого столетия, приобретает актуальное значение как структурная часть общих тенденций.

В Узбекистане обеспечение продовольственной безопасности, эффективное использование земельно-водных ресурсов, экологическая безопасность, а также создание новых рабочих мест стали одним из приоритетных направлений модернизации аграрного сектора и внедрения инновационных технологий. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев также особо подчеркивает необходимость кардинального обновления и развития сельскохозяйственной отрасли в соответствии с требованиями времени. В частности, в последние годы как никогда большое внимание уделяется модернизации и диверсификации отрасли с целью финансовой поддержки производства продуктов питания, фермерства, кластеров и коопераций<sup>1</sup>. Действительно, политика модернизации сельского хозяйства, проводившаяся в 1950-1970-х годах для полного и рационального использования имеющихся ресурсов и мощностей благодаря углубленному

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш. Работникам сельского хозяйства Узбекистана. //Народное слово. 13 декабря, 2020 года.

изучению исторического опыта, приобретает актуальное значение в устойчивом обеспечении населения сельскохозяйственной продукцией, повышении материальной заинтересованности, укреплении научно-практических основ проводимых реформ в сельском хозяйстве, разработке перспективных стратегий в аграрной сфере.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач намеченных в законах Республики Узбекистан №ЗРУ-995 «О сельскохозяйственном кооперативе» от 8 ноября 2024 года, №ЗРУ-662-II «О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан «О фермерском хозяйстве» от 26 августа 2024 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-431 «О мерах по дальнейшему повышению уровня механизации сельского хозяйства» от 12 декабря 2020 года, №ПП-4803 «О мерах по реализации проекта «модернизация сельского хозяйства Республики Узбекистан» с участием международного банка реконструкции и развития и международной ассоциации развития» от 11 августа 2020 года, №ПП-4633 «О мерах по широкому внедрению рыночных принципов в сферу хлопководства» от 6 марта 2020 года, №ПП-4021 «О дополнительных мерах по реализации проекта «диверсификация и модернизация сельского хозяйства» с участием международного фонда сельскохозяйственного развития» от 20 ноября 2018 года, Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5418 «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления сельским и водным хозяйством» от 17 апреля 2018 года, №УП-5853 «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы, а также в других нормативно-правовых документах.

**Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I.«Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовного и образовательного развития информатизированного общества и демократического государства».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.**

Исторический опыт модернизации сельского хозяйства, продовольственной безопасности, зеленой экономики, рационального использования природных ресурсов изучается исследователями в международных исследовательских организациях, таких как Учреждение продовольствия и сельского хозяйства Организации Объединенных Наций (FAO), Международный Совет по исследованиям сельского хозяйства (Consultative Group on International Agricultural Research), Международный фонд развития сельского хозяйства (International Fund for Agricultural

---

<sup>2</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе <https://www.un.org/>, <https://www.cgiar.org/>, <https://www.ifad.org/en/>, <https://www.ids.ac.uk/>, <https://uk.indeed.com/>, <https://www.agroparistech.fr/>, <https://www.ras.ru/>, <https://www.icrisat.org/>, <https://www.caas.cn/en/>, <https://fati.uz/>, <https://buxdu.uz/> и других источников.

Development), а также в Wageningen University & Research (Нидерланды), Институт исследований развития (IDS, Великобритания), Национальный институт по сельскому хозяйству (INRAE, Франция), Университет Висконсин-Мэдисон (США), College of Agriculture and Life Sciences (США), Всероссийский институт аграрных проблем и информатики имени А. А. Никонова (Россия), Институт российской истории РАН (Россия), Институт аграрных проблем РАН (Россия), Международный институт сельскохозяйственных исследований по культурам для полузасушливых тропиков (ICRISAT, Индия), Академия сельскохозяйственных наук Китая (CAAS, Китай), Ташкентский государственный аграрный университет, Институт истории АН Узбекистана. Бухарский государственный университет (Узбекистан).

